O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

# YOSHLAR OVOZI

BIZ — KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Молодежь Узбекистана

№ 3 (16409)
2021-YIL
17-FEVRAL,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ  YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU  @YOSHLAROVOZIUZ  @YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

# XALQ KUTUBXONASI QURILMOQDA

***Namangan shahridagi Davlatobod tumanida "Xalq kutubxonasi" qad rostlamoqda.***





*Shaharning eng ko'rkam binolaridan biri sifatida barpo etilayotgan mazkur inshoot aholi, ayniqsa yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, kitobxonlikni targ'ib etishga xizmat qiluvchi ziyo maskani bo'lib xizmat qiladi.*

*Loyiha me'mori, turkiyalik mutaxassis Guray Kaymakning aytishicha, kutubxonada bir paytning o'zida 500 nafar kitobxonga xizmat ko'rsatiladi. Uni barpo etish jarayonida eng zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.*

*Kutubxonada bir necha yuz ming kitobga mo'ljallangan arxiv, o'qish zallari, kompyuter xonalari, qahvaxona, bolalar maydonchasi va favvoralar joy oladi.*

*Bino qurilishi uchun 25 milliard so'm ajratilgan bo'lib, kutubxona shu yil Navro'z bayrami arafasida foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilgan. Hozirda inshootda jihozlash ishlari amalga oshirilmoqda.*





*O'zA fotomuxbiri Hotam MAMADALIYEV olgan suratlar.*

**BANDLIK DASTURI — AMALDA**

# ISH SIZLIK KAMAYADI

***Xorazm viloyatining barcha shahar va tumanlarida ish bilan band bo'lmagan fuqarolarning muammolari imkon qadar hal etilishiga erishilmoqda. Shu maqsadda tashkil etilayotgan bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarida o'nlab fuqarolar ish bilan ta'minlanyapti.***

**YANGIARIQ**

Yangiariq tumanida "Ayollar daftari"da 3 954 nafar xotin-qiz, "Yoshlar daftari"da 3 170 nafar ishsiz yosh ro'yxatga olingan bo'lib, 2021-yil davomida ularni ish bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.





Mazkur chora-tadbirlar doirasida tuman hokimligi, tuman prokuraturasi, tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi hamkorligida o'tkazilgan mehnat yarmarkasida tumandagi 56 ta korxona va tashkilot 301 ta bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etdi. Yarmarkada 20 ga yaqin fuqaro doimiy ish o'rniga ega bo'ldi.

**YANGIBOZOR**

Yangibozor tumanining "Do'stlik" mahallasida viloyat va tuman prokuraturalarinig tashabbusi bilan ishsiz fuqarolar uchun mehnat yarmarkasi tashkil etildi. Yarmarkaga hududdagi 190 nafarga yaqin ishsiz fuqora jalb qilindi. Ularning 80 nafarini ayollar, 54 nafarini yoshlar, 24 nafarini kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari tashkil etadi.

Davomi 2-sahifada.

## Diqqat, tanlov!

**"YOSHLAR OVOZI"-"МОЛОДЕЖЬ УЗБЕКИСТАНА" GAZETASI TAHRIRIYATI YOSHLAR O'RTASIDA "KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA YOSHLAR" IJODIY ISHLAR TANLOVINI E'LON QILADI**

"Koronavirus pandemiyasi va yoshlar" tanlovida 14 yoshdan — 30 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'zlarining pandemiya davri, uning oqibatlari haqidagi, qolaversa, sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi jurnalistik, badiiy va fotografik ijod na'munalari bilan ishtirok etishi mumkin. Ijodiy ishlarda Covid-19 pandemiyasi oqibatlari, yurtimizda mazkur virusning tarqalishiga qarshi olib borilayotgan ishlar hamda ushbu murakkab vaziyatga yoshlarning munosabati aks etishi lozim.

Tanlovga yuborilgan ishlar joriy yilning 31-mart sanasiga qadar quyidagi nominatsiyalar bo'yicha qabul qilinadi:

— "Eng yaxshi maqola";
— "Eng yaxshi esse";
— "Eng yaxshi fotoreportaj".

Eng sara ishlar gazeta sahifalarida e'lon qilib boriladi.

Ijodiy ishlar tahririyat huzurida tashkil etilgan maxsus komissiya tomonidan baholanadi. G'oliblar ro'yxati 2021-yil aprel oyining ikkinchi o'n kunligida gazetada e'lon qilinadi.

Tanlov nominatsiyalari bo'yicha 1-o'rinni egallagan nomzodlar maxsus diplom hamda BHMning uch baravari miqdorida pul mukofoti, rag'batlantiruvchi o'rin sohiblari maxsus diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Ijodiy ishlarni "Koronavirus pandemiyasi va yoshlar" tanloviga" rukni ostida quyidagi manzilga yuboring:

1. 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi 32-uy, "Yoshlar ovozi"-"Молодежь Узбекистана" gazetasi tahririyati
2. Telegram raqami: +99890 004-41-21.

# ISH SIZLIK KAMAYADI

Boshlanishi 1-sahifada.

Tadbirda 74 ta korxona va tashkilot 396 ta bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashdi.

"Do'stlik" mahallasidagi 725 ta oilada 2429 nafar aholi istiqomat qiladi. 9 ta oila "Temir daftar"da, 83 nafar yosh "Yoshlar daftari"da, 66 nafar xotin-qiz "Ayollar daftari"-da ro'yxatga olingan. Yarmarkada doimiy ish bilan band bo'lmagan 52 nafar fuqaroga kasbga qayta o'qitish uchun, 14 nafar fuqaroga tumandagi korxona va tashkilotlarga ishga joylashish uchun yo'llanma berildi.

Prokuratura mutasaddilarining o'rganishlari natijasida mahallada jami 96 ta tadbirkorlik subyekti mavjudligi aniqlandi. Ammo ularning 15 tasi hozir o'z faoliyatini to'xtatgan. Bu ishsizlar sonining ko'payishiga zamin yaratadi. Ayni paytda tadbirkorlik faoliyatidagi to'siq va kamchiliklarni aniqlash, tadbirkorlarga amaliy ko'mak berish ishlari boshlandi.

**URGANCH**

"UZTEX Group" MChJ qo'shma karxonasining Urganch filali tabiiy paxta tolasidan 50 turdan ortiq tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Hozirgi kunda korxonada 670 dan ziyod ishchi mehnat qilmoqda.

Korxona viloyat sanoat salohiyatini rivojlantirishga munosib hissa qo'shmoqda. Bu yerda mohir chevarlar xaridorbop trikotaj kiyim-kechaklarning yangi modellarini yaratish ustida izlanyapti. Ishlab chiqarish jarayoni so'nggi rusmdagi asbob-uskunalar yordamida bajariladi. Mahsulotlar ichki bozorga yetkazib berilishi barobarida xorij davlatlarga ham eksport qilinmoqda.

Ahamiyatlisi, korxonaga viloyatning barcha hududlaridan ishsiz ayollar jalb qilingan. Xususan, Yangiariq tumani aholi bandligiga ko'maklashish markazi bilan hamkorlikda 150 dan ortiq ayollar ish bilan ta'minlandi.

— Malakali mutaxassislarimiz yoshlarga "Ustoz-shogird" an'anasi asosida tikuvchilik sirlarini, yangi texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini o'rgatib kelmoqda, — deydi korxona mutaxassisi Quvondiq Bobojonov. — Korxonada ishchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

**Sumbuloy NURMETOVA**



# ZIYORAT TURIZMI – O'ZBEKISTONNING YANGI IQTISODIY IMKONIYATI

MUNOSABAT

***Yurtmizda turizmni iqtisodiyotning lokomotiv sohalaridan biriga aylantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi sanaladi. Buning uchun pandemiyadan keyingi davrda turizmni tiklash, sohaga investitsiya jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish, pirovardida yangi ish o'rinlari yaratish kerak. Mamlakatimizda turizmni tiklash va uni jonlantirish, ayniqsa, ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida urg'u berilayotgani bejiz emas. Negaki, turzm tarmoqlari qamrovi qancha keng bo'lsa, soha shuncha tez suratda rivojlanadi.***

2020-yil 9-dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida turizm va sport sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusi yildagi vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda 2021-yilda 1,7 million xorijiy, 7,5 million mahalliy sayyohni jalb qilish, turizm xizmatlari eksportini 370 million dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgan edi. Bu borada eng katta manba, avvalo, ziyorat turizmi sanaladi. Islom olamining ko'plab mashhur ulamolari yurtimizda yashab ijod qilgan. Shu bilan birga mamlakatimizda boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar uchun ham aziz bo'lgan tarixiy qadamjolar bor. Islom dunyosining eng noyob Qur'oni karim nusxalaridan biri – Usmon mus'hafi saqlanadigan Hazrati Imom majmuasi, buyuk islom imomi — al-Buxoriy maqbarasi, Naqshbandiya tariqati izdoshlari maqbaralari va shu kabi ko'plab boshqa diniy markazlar bor. Bunday tarixiy va muqaddas qadamjolarga ziyorat va sayohat qilish uchun har yili dunyoning turli burchaklaridan minglab sayyohlar O'zbekistonga keladi. Shunday imkoniyatdan foydalanib, 700 ming ziyoratchini jalb qilish va 130 million dollarlik xizmatlar eksportini ta'minlash mumkin.

Albatta, sayyohlarni jalb etish oson bo'lmaydi. Negaki, har bir inson avval yo'l tadorigini borar manzilidagi qulayliklar bilan tanishishdan boshlaydi. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, ziyorat yo'nalishlarida yangi temir yo'l marshrutlari va avia qatnovlarini yo'lga qo'yish, bu marshrutlar bo'yicha reyslarni subsidiyalash, O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish uchun xarajatlarning bir qismini qaytarish belgilangan. Turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida turoperator va turistik agentlar, mehmonxona xizmatini ko'rsatuvchilar uchun soliq imtiyozlari berilishi ko'zda tutilgan. Bunday imtiyoz xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirishga turtki bo'ladi.

Farmonda turizm obyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, kommunal va yo'l infratuzilmalarini yaxshilashga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, madaniy-ko'ngilochar infratuzilmalarni rivojlantirish, madaniy meros obyektlarini restavratsiya, konservatsiya qilish hamda obodonlashtirish uchun 1 trillion so'm ajratilmoqda.

Mazkur hujjat O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi jamoasi oldiga ham bir qator vazifalarni qo'yadi. Mamlakatimiz hududida yashagan buyuk alloma va ulamolarimiz, ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom Moturidiylarning bebaho merosini keng ko'lamda ommalashtirish va targ'ib qilish, ziyorat turizmi sohasida faoliyat ko'rsatuvchi kadrlarning malakasini oshirish, soha uchun malakali kadrlarni yetkazib berish shular jumlasidandir.

Akademiyaning "Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasi tomonidan Innovatsion rivojlanish vazirligi granti asosida ziyorat turizmiga oid axborot resurslarini jamlash, mamlakatda mavjud ma'naviy va moddiy boyliklar tavsifini umumlashtirish, ziyorat turizmi bo'yicha to'liq ma'lumot beruvchi integratsion elektron platformani yaratish borasida ish olib borilmoqda. Bu yurtimizga kelishi kutilyotgan sayyohlarga qulaylik yaratadi. Ular o'z uylarida o'tirib yurtimizda borishi mumkin bo'lgan manzillar ro'yxatini ko'rib chiqishi va yetarlicha ma'lumot olishi mumkin. Bu ham turistlarni jalb etishda qo'l keladi.

**Gulnora G'ULOMOVA,**
**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasi katta o'qituvchisi, iqtisodiyot fanlari nomzodi**

# BESHTA MUHIM TASHABBUS AMALDA

Orolbo'yida beshta muhim tashabbus doirasida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iste'dodli yoshlarni aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, Yoshlar ishlari agentligi, Xalq ta'limi, Madaniyat vazirligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar hamkorligida yoshlar o'rtasida turli ijodiy tanlovlar, sport musobaqalari, festival va madaniy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Ushbu xayrli tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi teatr jamoalari ham yaxshi tashabbus ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri ijodkorlari yoshlarni o'z repertuaridagi spektakl hamda pesalari bilan xushnud etmoqda.





Kuni kecha teatrga tashrif buyurgan Nukus shahridagi Prezident maktabi o'quvchilari Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi A.Sultonov dramasi asosida sahnalashtirilgan "Vatan tuprog'i" nomli spetaklni katta qiziqish bilan tomosha qildi.

Spektaklda qoraqalpoq xalqining suyukli farzandi, davlat arbobi Allayor Dosnazarovning hayoti va uning yurt uchun qilgan xizmatlari aks ettirilgan.

**O'zA fotomuxbiri Maqsad HABIBULLAYEV olgan suratlar.**

# "Bori elga yaxshilig' qilg'il"...

XABAR

***Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida buyuk shoir, davlat arbobi, tarixchi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 538-yilligiga bag'ishlab "Bori elga yaxshilig' qilg'il..." deb nomlangan adabiy-musiqiy kecha bo'lib o'tdi. Tadbirda adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar, jurnalist va tarjimonlar, Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'quvchilari va kutubxonasi foydalanuvchilari ishtirok etdi.***




Bobur nafaqat buyuk sarkarda, balki yetuk shoir va yozuvchi, "Boburnoma"dek tarixiy me'muar asar muallifi sifatida dunyoga tanildi. Uning she'riyati ham sodda, ham falsafiy teranligi bilan ajralib turadi.

— Bobur asarlaridagi ezgu g'oyalar yoshlarni vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarimizga ehtirom ruhida tarbiyalash, yurt taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantirishda katta ahamiyatga ega, — deydi filologiya fanlari nomzodi, dotsent Akrombek Dehqonov. — Bobur 10 dan ziyod janrda ijod qilgan. U turk fonetikasiga oid "Xatti Boburiy"ni yaratdi, "Volidiya" diniy-falsafiy asari (Xo'ja Abror Valiy)ning tarjimoni sifatida tarixda qoldi.

Tadbirda O'zR FA Til, adabiyot va folklor instituti doktorantlari M.Ibragimova "Boburnoma"da tasvir uslubi, E.Qurbonova yosh tadqiqotchilar nigohida boburshunoslik mavzularida so'zlar ekan Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo'li va ijodini o'rganishning zarurati, yosh avlod ma'naviy kamolotida Bobur ijodiy merosining ahamiyatiga alohida to'xtaldi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi M.Mo'minova o'qigan Bobur g'azallari hamda Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'quvchilarining raqslari kechaga o'ziga xos shukuh baxsh etdi.



Shu kuni Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi, boburiylar sulolasi tarixiga doir kitoblar ko'rgazmasi ochildi. Ko'rgazmadan o'zbek adiblarining Bobur siymosini gavdalantirgan tarixiy asarlari va mutafakkir asarlariga sharhlar ham o'rin olgan.

**Hasan ABDUNAZAROV**

*Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga 538 yil to'ldi*

# BU – BOBURNING TARBIYASI

*Boburning butun umri – hayot-u ijodi o'zlikni izlab topish yo'lida sarf bo'lgan ko'ngilga o'xshaydi. U dunyo kezib ko'nglini topgan, haqni izlab, o'zini topgan shoh, shoir, buyuk inson edi.*



U Navoiyni ustoz deb bildi. Unga maktublar bitdi, katta orzular bilan she'rlarini jo'natdi. She'rlariga go'zal naziralar bog'ladi. Navoiy vafotidan bir necha yillar o'tib, Hirotga borganida hazratning umri kechgan go'shada yigirma kun yashadi. Uning ruhidan madad oldi. "Boburnoma"da Navoiy, uning iqtidori, a'moli haqida juda ko'p yozdi. Asarning boshlanishidayoq Andijon haqida so'zlab, shunday deydi: "Eli turkdur. Shahar va bozorlarida turkiy tilni bilmaydiganlar topilmas. Elining so'zlari adabiy tilga muvofiq keladi... Alisher Navoiy asarlari Hirotda shuhrat topgan bo'lsa-da, ushbu tilda bitilgan" (ko'chirmalarni muallif tadbil qilgan).

Uni Navoiy yaratgan vaqfiy inshootlar, bog'-rog'lar, arig'-u hovuzlar hayratga soladi. Dunyoda hatto podshohlar ham obodonchilik yo'lida Navoiydek ko'p ishlar qilmagan, deb ta'kidlagan jahongirning o'zi ham ustozidan qolishmadi. Kobul va uning atrofida, Hindistonda shuncha ko'p bino-yu bog'lar, ariq va gulzorlar barpo etdiki, ulardan ayrimlarining nomi bugun ham mashhur. Bobur egallagan yerlarini obod qildi, u yerga nur, ziyo olib kirishni istadi – vatanidan olisda vatan qurishiga ishonib yashadi. Shu bois, bu tuproqqa mehrini, qalbining qo'rini berdi. Bo'lmasa, "Hindiston u qadar chiroyli o'lka emas. Elida ham husn yo'q. Muomala madaniyati, o'zaro muloqot, bordi-keldi degan narsalarni bilmaydilar. Ta'bi, idroki va adabi yo'q, karam va muruvvatni bilmaydi, hunar va ishlarida hisob-kitob, tartib, reja yo'q. Yaxshi ot va yaxshi it uchramaydi. Yaxshi uzum, yaxshi qovun va yaxshi mevalari yo'q, muz va sovuq suvi yo'q, bozorlarida yaxshi ovqat va yaxshi non topmaysiz, Hammom yo'q, madrasa yo'q, mash'ala, sham va shamdon yo'q...", deb yozgan Boburning shu zaminda buyuk ishlarni amalga oshirishiga kuchi, qudrati yetarmidi?!

Bobur o'zi obod etgan Hindistonda turib, tug'ilib o'sgan yurtini sog'indi. Hindiston o'simliklari yoxud qushlariga ta'rif berayotgan chog'i o'z yurtidagi shu kabi meva yoki hayvonlarni qiyos qilib esga oladi. Farzandlariga o'z ona tilini mukammal bilishlari uchun dasturi a'mol beradi.

...Bir safar yigitlari bilan Kobul sari otlangan Bobur qattiq bo'ronga duch keladi. Qor shunchalar yog'adiki, oxir-oqibat yo'l yopiladi. Shunda yigitlar beligacha, ko'ksigacha qorga botib yo'l ochadilar. Bobur bu voqeani shunday eslaydi: "... Ana shu kuni qattiq bo'ron ko'tarilib, qor yog'ardi. Barcha o'lim vahimasiga tushdi... G'orga yetganda, qor quyuni tezlashdi. Ushbu g'or qoshida to'xtadik... Ko'plar ot ustida tong ottirdi, g'or torroq ko'rindi. Men g'orning og'zida kurak olib, qor kuradim, qorni ko'ksimgacha qazidim, sira yerga yetmasdi. Biroz shamoldan pana bo'ldi, o'sha yerda o'tirdim. Har qancha: "G'orga kiring", deyishsa ham kirmadim. Barcha el qoru bo'ronda, men esa issiq uyda istirohatda o'tiramanmi, deb o'yladim. Munda barcha el tashvish va mashaqqatda, men bu yerda uyqu-yu farog'atda bo'laymi?! Bu muruvvat va hamjihatlikdan yiroq ishdir. Men ham har tashvish bo'lsa ko'rayin, har nechuk el toqat qilib tursa, turayin. Bir forsiy maqol bor: "Do'stlar bilan birga topilgan o'lim – to'ydir"...

Bu kabi mashaqqatlarni boshdan kechirgan, o'zgalar g'ami bilan yashashga o'rgangan shoh Bobur farzandlarining komil insonlar bo'lib ulg'ayishini o'yladi, shu haqda qayg'urdi, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanishni muhim deb bildi. Zero, Gulbadanbegimning "Humoyunnoma"si, Humoyun mirzo va Komron mirzo yaratgan "Devon"lar, ularning nozik ta'bi va o'tkir didini faqat qondan o'tgan, deb bo'lmas. Bu – Boburning tarbiyasi. Bobur "Xatti Boburiy"ni yaratdi. "Musiqa ilmi", "Harb ilmi" kabi asarlarni yozdi. Bular, eng avvalo, farzandlari o'qishi, o'rganishi zarur bo'lgan kitoblar edi. Mukammal axloq egasini shakllantirishga mo'ljallangan "Mubayyan" asari faqat dilbandlarining emas, balki o'sha davrdagi barcha mo'min-musulmonlar uchun dasturilamalga aylangan edi, bu asar bugun ham qimmatini yo'qotmagan.

Farzandlari ulg'aygach, ularga Hindistondan o'zga yerlardagi mamlakatlarni boshqarishni ishonib topshirgan shoh Bobur o'g'illariga maktublar bitib, yo'l-yo'riqlar ko'rsatar, otalarcha nasihatini qilar, ba'zan do'q-po'pisa bilan siyosatini ham ko'rsatib qo'yar, lekin hech vaqt otalik mehrini ayab o'tirmasdi. Boburning farzandlariga bitgan o'git-nasihatlarga to'la maktublari bor. Jumladan, Humoyunga bitilgan bir maktubning o'zida ko'plab masalalarning hal etilganiga guvoh bo'lish mumkin.

Maktub Humoyun farzandli, Bobur nabirali bo'lgani haqidagi quvonchli xabar kelgan kuni bitilgan edi. "Tangri taolo bunday sevinchlarni menga va senga hamisha nasib etsin, omin yo rabb al-olamin. Ismini Al'amon qo'yibsan. Tangri muborak qilsin. Ammo shunday bo'lsa-da, o'zing yozganingdek, g'ofillik qilibsanki, bu ismni ko'p qo'llaganda, avom Alamo yoki El Amon deydilar, «alif» va «lom»ning bunday qo'shilib kelishi ismda kam uchraydi. Tangri oti va zotini qutlug' va muborak qilsin, menga va senga uzoq umr bersin, Al'amon ko'p asrlar davlat va saodatli bo'lsin".

Maktubning davomida ota farzandlariga o'git beradi, shu bilan birga vasiyat ham qiladi, ya''ni: "Yana, Komronga va Kobuldagi beklarga borib, senga qo'shilishga va undan Hisorga yoki Samarqandga, umuman, davlat osoyishtaligi qayerni tilasa, o'sha yerga jo'naysizlar, degan farmon bo'ldi. Tangrining inoyati bilan dushmanni yengib, xudo xohlasa, viloyatlarni qo'lga olib, do'stlarni shod va dushmanlarni xor qilgaysizlar. Sizlarning jonni tikib, qilich soladigan paytingiz keldi. Omadingiz kelganida, uni boy berib qo'ymang. Beparvolik va sustkashlik bilan podshohlik muvofiq kelmaydi.

**Jahongire tavaqquf bar nayobad,**
**Jahon onro buvad ko' beh shitobad,**
**Hama chizi zi ro'i kadxudoi –**
**Sukun meyobad illo podshohiy.**

(Mazmuni:
*Jahongirlik to'xtab turmaydi,*
*Kim yaxshi tirishsa, jahon o'shaniki bo'ladi,*
*Hayotda har bir narsa to'xtashi mumkin,*
*Ammo podshohlik to'xtamaydi.*)

Agar Tangrining marhamati bilan Balx va Hisor viloyatlarini qo'lga kiritish nasib etsa, Hisorga sen o'z odamingni qo'y, Balxda Komronning odami tursin. Agar Tangrining inoyati bilan Samarqand ham fath etilsa, Samarqandda o'zing o'tir. Hisor viloyatini xudo xohlasa, o'z ixtiyorimda qoldiraman. Agar Komron Balxni oz deb bilsa, xabar bering, bu kamchilikni xudo xohlasa, o'sha yerdagi qo'shni viloyatlar bilan to'ldiramiz. Senga ma'lumki, har doim bir qoidaga amal qilinardi: olti hissa senga bo'lsa, besh hissa Komronga tegardi. Hamisha ushbu qoidaga amal qilgin, undan chetga chiqmanglar. Ukang bilan yaxshi yashagin. Kattalar ko'tarimli bo'lishlari kerak, sening ham u bilan yaxshi muomalada bo'lishingga umid qilaman. U ham imonli va yaxshi yigit, xizmat va hamjihatlikda uning ham kamchiligi yo'q".

O'g'li Humoyunning tabiatini yaxshi bilgan ota unga shunday nasihat qiladi: "Sendan bir oz ginam ham bor. Ikki-uch yildan beri birorta odaming kelmadi. Men yuborgan odam ham roppa-rosa bir yil o'tib qaytdi. Shunday ham bo'ladimi?

Buning ustiga xatlaringda yolg'izlik, yolg'izlik deb yozibsan. Podshohlikda bunday deyish aybdir. Axir aytadilar-ku:

***Agar poy bandi rizo pesh gir,***
***Va gar yaksuvori sari xesh gir.***

(Mazmuni:
*Agar oyog'ing band bo'lsa, rizoni oldingga qo'y,*
*Agar tanda suvora bo'lsang, o'z boshingga bor.*

Ya'ni: jangga bog'langan bo'lsang, boshingga kelgan har narsaga rozi bo'l, agar hech narsaga bog'lanmagan bo'lsang, yo'lingdan qolma, ketaver.)

Hech bir band podshohlik bandicha bo'lmas. Podshohlik bilan yolg'izlik muvofiq kelmas. Yana men aytgandek, xatlaringni yozib bo'lgach, ularni qayta o'qimaysan, chunki o'qishni niyat qilganingda ham o'qiy olmasding. O'qiy olmaganingdan so'ng, albatta, o'zgartirgan bo'larding. Xatingni qiynalib o'qisa bo'ladi, lekin u juda chalkash. Nasrda hali hech kim muammo ko'rgan emas. Garchi uncha to'g'ri bo'lmasa ham, imlong yomonmas. «Iltifot»ni «to» bilan, «qulunj»ni «yo» bilan bitibsan. Xatingni bir amallab o'qisa bo'ladi, lekin tushunarsiz so'zlarni qo'llaganingdan maqsadingni to'la tushunib bo'lmaydi. Ehtimol, xat yozishga sustliging shundandir. Jimjimador so'zlarni bitmoqchi bo'lasan, shu bois tushunarsiz chiqadi. Bundan keyin takalluf qilma, ravshan va aniq so'zlar bilan yoz. Senga ham, o'quvchiga ham tashvish kamroq bo'ladi.

Endi sen katta ishlar oldida turibsan. O'y-fikrli va tadbirli beklar bilan kengashib, ularning so'zlariga amal qil.

Agar mening roziligimni istasang, xilvatda o'tirishni bas qil, odamlardan uzoqlashishni unut. Bir kunda ikki bora ukang va beklarni ixtiyorlariga qo'ymay, qoshingga chorlab, har qanday maslahat bo'lsa kengashib, har bir ishingni bu xayrixoh kishilar bilan ittifoqlikda amalga oshirgin"...

Aytish mumkinki, Boburning mana shunday talabchanligi, tarbiyasi tufayli boburiylar sulolasi uzoq yillar gullab-yashnadi, tarixda yaxshi nom va o'chmas iz qoldirdi.

**Karomat MULLAXO'JAYEVA,**
**Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi**

ACHCHIQTOSH




# Yeng janoblari

***Esimni taniganimdan buyon qulog'imga chalinadi: "Korrupsiyani ildizagacha quritamiz", "Poraxo'rlikka qarshi kurashamiz", "Qonun barchaga barobar"... Eferlarda qator eshittirish va ko'rsatuvlar, matbuotda o'tkir maqolalar, haybatli shaharlarning muhtasham binolarida, binoning bala-and-baland qavatlaridagi anjumanlar zalida uchrashuvlar, majlislar bo'ladi. Hech bo'lmasa, oyda bir marta korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan yangi loyiha tayyorlanadi. Maktab, litsey, oliy ta'lim muassasalarida "Men korrupsiyani qanday tushunaman?", "Biz korrupsiyaga qarshimiz", kabi mavzularda diktant, insho, rasmlar tanlovlari o'tkaziladi... Xullas, sanab adog'iga yetolmaysiz.***

Afsuski, bu illat yo'qolmayapti, yo'qolmaydi ham-da! Ehtimol, uning ildizini qirqish uchun insonning genini yangilash kerakmi yo qonini, miyasini tozalash lozimmi, deysan. Qon bilan kirgan jon bilan chiqadi, deyishadi-ku!

O'z ishini sevmaydigan, lavozim majburiyatlaridan faqat pul topish uchun foydalanishni o'ylagan, topgani o'ziga — oilasiga yetmayotgan odam qing'ir ishga qo'l uradi. Ozod Sharafiddinov ta'rifi bilan aytganda, mehnatiga yarasha maosh olmagan xodim maoshiga yarasha ishlay boshlaydi yoki boshqa yo'llar bilan kamini to'ldirish payiga tushadi. Oqibatda korrupsiyaga qo'l uradi, tanish-bilish, "akaxonda" va "ukaxonda"lar orttirib, lavozimini suiiste'mol qiladi...

Oqibatda iqtisodiy qaramlikdan hamon qutula olmadik. O'zini bilimli va hammadan aqlli sanovchi "janob"lar xalqning mol-dunyosini, tinchini, halovatini o'g'irlagani, muttahamlikning otini "yordam" qo'yib, insonlar bor-budini shilib, huzur qilib yashayotgani ayanchli holdir.

Universitetimizda "Fuqarolik jamiyati" degan fandan yozma imtihon bo'lgandi. Kursdoshimning gapini eshitib, o'rnimdan qalqib tushdim:

"Korrupsiyani men qanday tushunaman?" degan savolga yozgan javobim uchun o'qishdan haydalib ketishimga oz qoldi".

"Javoblar varag'iga nima deb yozganding?".

"Korrupsiya bizgacha ham bo'lgan, hozir ham bor va keyin ham bo'laveradi. Ishga kirsam, men ham pora olaman. Negaki, talabalar turar joyida yashash uchun kimlarga qancha "xarajat" qilganim, yotoqxonadan joy tegmagach, hozir ijara uyda ko'rayotgan azoblarim, ota-onamning qishloqdan jo'natayotgan pullari... hammasini hisoblab yuribman! Yana kontrakt to'layman. Oladigan 400 ming so'm stipendiyam bu katta shaharda nimagayam yetardi... Oilamga yordam bo'lsin deb, o'zingni o'tdan-o'choqqa urasan-da, amal-taqal qilib o'qishni bitkazasan. Qarabsanki, ko'plar qatori diplomi bor o'rtamiyona o'qituvchi bo'lib turibsan! Keyin diplomni sandiqqa tashlab, chet elga ishga ketasan. Xullas, xurjuningni yelkalab, oliy ma'lumotli quruvchi bo'lasan-da, tentirayverasan, tentirayverasan"...

"Bo'ldi, bo'ldi, tushundim-ey, — dedim uning his-hayajonga to'la gapini bo'lib. — Shuncha gapni qayerdan olasan, o'ziyam korrupsiyaga qarshi "ma'ruza" bo'b ketdi-ku!".

"Ha, lekin o'zing ayt, qaysi so'zim yolg'on, qaysi noto'g'ri?"...

Tayinli so'z aytolmay biroz g'o'drandim. Ammo o'ylab qoldim: chindan ham haromdan, birovning haqidan hazar qilib kelgan ota-bobolar avlodimiz. Xalqning bir tangasigayam xiyonat qilmasdan, borini tinchlik, farovonlik va mamlakatdagi obodonchilik yo'lida sarf etib, "Qilma ulus irzu iyolig'a qasd, Aylama el joni-yu molig'a qasd" (Alisher Navoiy) deya dostonlar bitgan ajdodlarning vorisi ekanimga ba'zi kaslarning qilmishini ko'rib, ishonqiramay qolaman...

Bu qadar bir-birini chuv tushirishdan, ta'ma qilishdan qo'rqmaydigan odamlar qayerdan paydo bo'ldi? Nahot bu illatdan xalos bo'lishning imkoni bo'lmasa?..

Korrupsiya — pora olish, pora berish, o'rtada turish; tovlamachilik — kimningdir muammosi hal bo'lishi uchun uning bor budini, umrini talon-toroj qilish; Odam bo'la turib Odamni chuv tushirish... Bu foniy dunyoda ular rohat-farog'atda yashashi mumkin, ammo vaqt-soati yetib, o'z "ajri"ni olajak...

Odamdek yashashga adolatsizlik, erkinlikni toptash, kamsitish, xo'rlash singari zulmlar doim halal berib kelgan. Dunyoda hech kim o'z-o'zidan o'g'ri, muttaham, kazzob yoki poraxo'r bo'lib qolmaydi. Bunga, avvalo, muhit, yetishmovchilik va jamiyatdagi turli ijtimoiy zug'umlar sabab bo'ladi. Haqiqatan ham, talaba xayolda ming xil g'avg'o va o'y-tashvishlar bilan o'qiydi-yu, ammo uqmaydi, qarabsizki, inson omili jaholat botqog'iga botib boraveradi. Bilimsizlik esa millatni yo'qlik girdobiga tortib ketadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni, eng avvalo, oiladan, tarbiyadan, so'ngra maktabgacha ta'lim muassasalari va boshlang'ich sinf o'quvchilari — eng quyi bo'g'inlardan boshlash zarur. O'sib kelayotgan yosh avlod ongiga bu kabi illatlarga nafrat tuyg'usini uyg'ota olsakgina, jamiyat "tozalanadi".

Internetga "talon-toroj qilindi", "o'marildi" deya yozib ko'ring-chi, keti uzilmas xabarlar "guldasta"sini chiqarib beradi. Bu oramizda qing'ir yo'llar bilan topganini oilasi va ro'zg'origa olib kirib, haromdan hazar qilmaydigan rahbarlar ko'payganidan dalolat. Ehson tariqasida yig'ilgan pullarga ham ko'z olaytirib, o'marayotganlarni aytmaysizmi? Hamma to'y bilan, bo'ri qo'y bilan, deganlari shu bo'lsa kerak...

Hammamizning yengimiz bor. So'ngso'z o'rnida, shu yeng haqida ikki og'iz gapirish uchun yeng shimardim. Xullasi kalom, o'sha yeng deganlari ayni kunda yangi "lavozim"ga ko'tarilibdi: endi uni hamma "Yeng janoblari" deya atashayotgan ekan!

Boshida u `oddiy yeng edi. Hammatolari singari bor-yo'g'i yeng. Tirsakkacha tushadigan bir qarich matodan boshqa hech nimasi yo'q edi. Hatto nomi ham! Chunki insonlar yengi kalta ko'ylakni "yengsiz ko'ylak" deb atashardi...

Shunga qaramay u ishning ko'zini biladigan, nihoyatda abjir edi. "U yengidan kirib, bu yengidan, indamasangiz, yoqadan ham chiqadiganlardan".

Vaqt o'tib "hunar"ini yeng ichida yurgizadigan "ishbilarmonlar", "yengidan tushganni qo'njiga uradiganlar" safi kengayganidan so'ng uning hurmati nihoyatda oshdi! Qo'lning qing'irliklari ko'paygani sayin jamiyatda yengga ehtiyoj ortib, unga e'tibor kuchaydi. Oramizda shunday uddaburonlar borki, porani yeng ichida va uchida olib, jig'ildonga uradi, birov sezmaydi!

Bosh yorilsa, bo'rk ichida, qo'l sinsa, yeng ichida. Mabodo qilmishi oshkor bo'lsa ham, u ovoza qilinmaydi. Singan qo'lning jarohati yeng ichida tuzalib, yara bitganidan keyin qing'irliklarini davom ettiraveradi...

Keng yenglaridan chiqib turgan qo'llarni aytmaysizmi! Biram nozik, biram muloyim!..

**Abdulaziz AHMEDOV**

# BULLING

***Gohida tengdoshlarim yoki mendan biroz katta bolalarni ko'rib ko'nglim o'ksiydi. Ular ota-onasidan o'zlariga yoqqan narsani olib berishini so'raydi va bunga erishadi. Lekin ba'zi ota-onalar farzandini tushunmay, ularning istagini rad etadi. Bunday vaziyatda ularni tushunsa bo'ladi. Negaki, hamma oila ham boy-badavlat emas. Afsuski, ular bolasining ana shu istagi bajarilmagani sabab maktabdagi tengdoshlari orasida bosimga uchrashini bilmaydi.***




Tengdoshlaridan ust-boshi, qo'lidagi telefoni yoki shunga o'xshash narsalar sabab ajralib qolgan tengdoshlarini uyidan ham, sinfdoshlaridan ham arazlab, tushkunlikka tushib qoladi.

Bolalar o'rtasidagi bunday zo'ravonliklarni olimlar bulling deb ataydi.

Boshqalarga bunday bosim o'tkazish, huquqiy tenglikni buzish ekani haqida tushunchaga ega bo'lmagan tengdoshlarimiz ham bor. Eng ko'p uchraydigan holat birbiriga kamchiliklarini pesh qilib urishishdir. Bunday vaziyatda bola ota-onasi bilan g'ururlanadi. Ammo bola ota-onasi orqasidan tengdoshlar orasida faxrlana olmasa, boshqalardan ajralib qoladi.

Bir safar ko'zi ojiz bolani kamsitayotgan bolalarga duch keldim. Ularning yoshi mendan katta bo'lgani uchun hech narsa deya olmaganimdan hamon alamim keladi. Aksariyat nogiron shaxslar nisbatan iste'dodliroq bo'ladi. Bunga misolar juda ko'p. Bolalar shu jihatdan kelib chiqib bir-biriga baho bermaydi. Xo'sh, bunday ko'ngilsiz holatlarga kim sababchi?

Agar bola nimanidir olib berishni so'rayaptimi yoki darslarda boshqalardan ajralib qolyaptimi, demak, u tengdoshlar ta'qibiga uchragan! Bunday vaziyatda, avvalo, ota-onalarimiz va o'qituvchilarimiz ahamiyat berishi, vaziyatdan o'z vaqtida xabardor bo'lib, bolalar bilan do'stona munosabat o'rnatishi kerak. Shundagina vaziyat yumshaydi. Muhimi biz tengdoshlar boshqalarga namuna bo'lishimiz, ta'qib ostida qolgan do'stlarga yordam qo'lini cho'zishimiz zarur.



**Abdulloh ABDUMO'MINOV,
Toshkent shahridagi 102-maktabning o'quvchisi**

**Исходя из своего опыта, хочу дать вам совет: цените науку, стремитесь к наукам! Не тратьте напрасно ни секунды! Помните: молодость – самая бесценная пора жизни, а наука и знания – уникальное богатство, оно в огне не горит, в воде не тонет, и никто не сможет его отнять!**

**Вы – дети независимости. Вы росли, не зная, какое давление и преграды пришлось преодолевать нашим отцам и дедам, вы свободно живете на земле независимой Родины.**

**Вы, молодые люди, должны стать решающей силой на пути к высоким целям.**

**Шавкат МИРЗИЁЕВ,**
**Президент Республики Узбекистан.**
*Из послания Олий Мажлису от 29 декабря 2020 года.*



# Чтобы родные стены помогали

СЫНЫ РОДИНЫ



***С детства дела строительные манили к себе джизакского мальчишку: как завороженный останавливался там, где формовали кирпичи, замешивали раствор, возводили стены. Каждую деталь взглядом фотографирует и мечтает о доме, который построит сам.***

Базовый докторант Ташкентского архитектурно-строительного института Бекзод Турсунов, в 2020 году удостоенный Государственной премии «Мард углон», с улыбкой вспоминает о себе, восторженном пареньке:

– Рано нашел свое призвание. Когда пришло время выбирать профессию, сомнений не было. Поступил в Джизакский политехнический институт и ни разу об этом не пожалел. На подъеме слушал лекции, вел подробные конспекты, много занимался самостоятельно. Без напряженной работы над собой хорошим специалистом не станешь.

Со стороны кажется, что достижения сыплются на юношу как из рога изобилия, а за ними труд – системный, каждодневный, желание развиваться гармонично, не зацикливаясь на одной профессиональной подготовке. Сложно представить молодежное мероприятие институтского, районного, республиканского масштаба, которое бы не заинтересовало Бекзода. Он сторонник внедрения интерактивных технологий в учебный процесс, автор компьютерных программ, знаток налоговой системы, пропагандист, член клуба «Заковат». А еще защитник окружающей среды, выступающий за развитие экотуризма, неоднократный призер предметных олимпиад, член трудового отряда «Бунёдкор», волонтер группы «Стражи здоровья», участник проекта «Профилактика ВИЧ/СПИДа и наркомании среди молодежи»... Активист Союза молодежи Узбекистана, которому все по плечу.

– Организация конкурсов, помощь начинающим предпринимателям, реализация разноплановых проектов, проведение акций, награждение юношей и девушек – блестящие возможности личностного роста, – считает Бекзод Турсунов. – Символично, что 2021-й назван Годом поддержки молодежи и укрепления здоровья населения. Проблемы подрастающего поколения всегда во главе угла. Будущее Узбекистана в руках образованных, энергичных, инициативных юношей и девушек. Горжусь, что принадлежу к их числу.

С каждым годом все больше кандидатов подает заявки на соискание Государственной премии «Мард углон». С малых лет родители внушали мне: «Кем бы ты ни стал, будь достойным сыном Родины!» Награждение воспринимаю как большую победу и не меньший аванс: я на правильном пути, в меня верят, значит, надо работать результативнее. Так, чтобы оставить добрый след. Оправляя в зарубежное издание или на конференцию очередную статью, говорю себе: «За тобой Узбекистан, ты не можешь работать вполсилу!»

Публикации Бекзода составят внушительную библиотеку по специальности, а сертификаты, грамоты, дипломы – экспозицию музея. Чтобы перечислить только названия конкурсов, конференций, в которых он принимал участие, представить список исследований поры бакалавриата и магистратуры, понадобится несколько страниц. Перспективный студент был удостоен, что весьма символично, стипендии имени Беруни – яркого примера служения науке для каждого узбекистанца.

– Учусь у великих предков уважительному отношению к знаниям, – говорит лауреат престижной премии для юношей, – ведь это бесценное сокровище, которое всегда при тебе. Поэтому стараюсь как можно эффективнее использовать время. Рациональное планирование позволяет плодотворно заниматься наукой и общественной работой, спортом, правильно отдыхать. Важную роль в этой грамотной организации труда сыграли наставники. Доктор технических наук, профессор Хуснитдин Акрамов руководил моей магистерской работой, сейчас вместе с ним провожу исследования по теме «Разработка эффективных составов легкого бетона на основе многокомпонентных цементов». У нас с Хуснутдином Ахроровичем сложились добрые отношения. Советуюсь с ним не только по технологическим вопросам. Это вдохновляющий образец для магистрантов, докторантов. Уверен, что оправдаю доверие устоза и он не пожалеет о потраченных на меня силах и времени.

Кому-то само слово «бетон» в теме исследования покажется серым и скучным, однако Бекзод может часами говорить о стройматериалах сегодняшнего дня. Требование современности – быстрое и качественное возведение многоэтажных домов. С этой важной задачей как раз и «справляется» его легкий бетон. Облегчает вес здания, повышает теплоизоляционную способность. К тому же экологически чистый.

Удалась энергичному юноше и роль корреспондента. Неоднократно его материалы публиковались в областных изданиях, газете «Бинокор» Ташкентского архитектурно-строительного института. В своих насыщенных буднях Бекзод находит время для книги, отмечая божественный дар Навои, искренность чувств Бабура. Любимое произведение нашего героя – роман Уткура Хашимова «Между двух дверей», который он ценит за реалистичность и особое воздействие на читателя.

Когда докторанта Турсунова расспрашивают о его интересах, он неизменно подчеркивает:

– Их много. Разве можно не интересоваться книгами, историей родной страны, ее достопримечательностями, красотой природы?! Только нужно, чтобы от твоего интереса и другим польза была. Если считаешь себя достойным сыном Родины, береги ее, делай все, чтобы она становилась сильнее и краше!

**Ольга ВОЛОДИНА**

## ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРЕМИЯ «МАРД УГЛОН»

**Ежегодно награждаются 28 человек**

**Государственная премия «Мард углон», учрежденная в 2017 году, присуждается одаренным юношам, являющимся примером для сверстников своими успехами в учебе, общественной активностью и талантом, за особые достижения в области науки, образования, медицины, культуры, литературы, искусства, производства, военной службы и в деятельности правоохранительных органов.**




**1 ПРЕИМУЩЕСТВА**

**Лауреаты «Мард углон» из числа учащихся учреждений общеобразовательного и среднего специального, профессионального образования принимаются в бакалавриат вузов, а имеющие степень бакалавра зачисляются в магистратуру по соответствующему направлению без вступительных экзаменов на бюджетной основе.**

**2 НАГРАДА**

**Государственная премия устанавливается в размере 50-кратной базовой расчетной величины.**

**3 УЧАСТНИКИ**

**Возраст – от 14 до 30 лет. Премия вручается по двум представителям от каждого региона. Постановление о присуждении «Мард углон» подписывает Президент Республики Узбекистан.**

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана
WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI
№ 3 (16409) 2021-YIL 17-FEVRAL 7

Sport life

## Вот это скорость!

***Впервые в истории международных соревнований автогонщик из Узбекистана Анвар Эргашев поднялся на пьедестал почета на Кубке мира FIA Cross Country World Cup 2021 (Санкт-Петербург).***



По итогам трехдневной гонки, проходившей в условиях суровой российской зимы, наш спортсмен занял третье место в зачете «Т3». Это первое достижение Узбекистана в международных состязаниях, проводимых в рамках Кубка мира по ралли-рейдам под эгидой Международной автомобильной федерации (ФИА).

## Олимпийскую деревню

***построят в Бостанлыкском районе Ташкентской области. Новый объект планируется сдать в эксплуатацию накануне IV Азиатских юношеских игр, которые пройдут в Ташкенте в 2025 году.***



Перед Министерством строительства поставлена задача разработать проект деревни со всей необходимой инфраструктурой. Специальная комиссия Олимпийского совета Азии будет следить за соблюдением международных норм и стандартов.

Ожидается, что в Играх примут участие пять тысяч зарубежных спортсменов, а также десять тысяч сопровождающих их тренеров, врачей, членов официальных делегаций и журналистов.

## Доехать до «Тур де Франс»

***В республике впервые создана профессиональная команда по велоспорту.***



В Министерстве юстиции зарегистрирован велосипедный клуб Uzbekistan Cycling Pro Team, который сможет принимать участие в таких крупных международных соревнованиях, как «Тур де Франс», «Джиро д'Италия» и других.

Штаб-квартира и основная база для тренировок разместятся в городе Любляна (Словения). Еще одна база – в Узбекистане.

У клуба появятся отдельные мужские и женские команды в направлениях «трек» и «шоссе». Всего могут быть привлечены 16 спортсменов, в том числе легионеры. Дебют Uzbekistan Cycling Pro Team состоится в марте на состязаниях в Словении.

## А судьи кто?

***Равшан Ирматов вошел в список лучших арбитров за последнее десятилетие.***



Такой рейтинг, охватывающий период 2011–2020 годов, подготовила Международная федерация футбольной истории и статистики. При этом учитывались ежегодные достижения каждого рефери.

В тройку сильнейших судей вошли Феликс Брих (Германия), Жунайт Чакыр (Турция) и Бьорн Кёйперс (Нидерланды).

Наш соотечественник Равшан Ирматов занял 16-е место с 33 очками. Опередил Юнаса Эрикссона (Швеция), Клемана Тюрпена (Франция) и Алиризо Фагони (Иран).

ЧЕСТНЫЙ СПОРТ

# ЖЕМЧУГА НА ГИЛАМЕ

***«Утром, переодевшись, вышел на майдан сам Алпамыш и стал вызывать Кокалдаша на бой» – так описывается в узбекском народном эпосе последний этап состязаний за право взять в жены Ай-Барчин. Вместо традиционного гилама – политая водой земля, вместо судей – зрители с их ободряющими криками. И борьба палванов, в честном поединке мечтающих завоевать желанную награду. Как назвать бросок Хакимбека, если он швыряет противника ростом выше минарета высоко в небо? Есть ли в арсенале спортивной науки такой термин?***



*Знакома с борьбой кураш и избранница Алпамыша: защищаясь от бесцеремонного калмыцкого батыра Кокамана, поднимает его в воздух и бросает на землю навзничь. Настоящий «халол».*

*Это народные сказания, дела давно минувших дней. Однако Узбекистан XXI века бережно относится к памяти предков, берет от них лучшее, приумножая достижения.*

*Мы беседуем* **с пресс-секретарем Федерации кураша Узбекистана Зулхумор Рузиевой** *о том, какие перспективы ждут современных палванов в свете постановления Президента Республики Узбекистан «О мерах по развитию и дальнейшему повышению авторитета национального спорта кураш». Не сказочных великанов, а смельчаков из всех уголков республики, оттачивающих мастерство и пропагандирующих национальную борьбу в мире.*

*Признаюсь, ожидала увидеть на этой должности мужчину, так что первый вопрос, заданный Зулхумор Хамиджановне, библиографу и журналисту по образованию, прозвучал кратко, но эмоционально:*

**– Почему?!**

– Выросла среди палванов, закаленных в боях. Отец, известный курашист, приобщил к национальной борьбе семерых сыновей. Интересная деталь: если кто-то приезжал к нам в кишлак и спрашивал, где живет Хамид-ака, люди пожимали плечами. Стоило уточнить, что ищут Хамида-палвана, – моментально показывали дорогу.

Долгое время борьба кураш была обычной народной, хотя и весьма специфической, забавой. Без поединков не обходился ни один той. Как самая преданная папина болельщица, я посылала ему свою энергетику и ждала, какой приз принесет домой. Когда отец выигрывал, скажем, барана, мясо раздавали всей махалле. Такова традиция. Помню знаменитый «полвон-палов» – праздничный плов для победителя. Хотелось посмотреть на состязания близких, но братья всегда говорили: «Не женское дело!» Это сейчас девушки могут заниматься практически любым видом спорта и многие наши землячки побеждают в престижных соревнованиях, а тогда другое время было.

**– У борьбы кураш мощные вековые корни. Более трех с половиной тысяч лет – срок впечатляющий. Это культурное наследие, которое передавалось из поколения в поколение…**

– В народе говорят: «Кураш у узбеков в крови». Когда рождаются сыновья, одно из пожеланий малышу «Полвон булади!», то есть «Богатырем будет!» Именно этот вид спорта послужил стартом для наших атлетов, добившихся значительных результатов в дзюдо, самбо, рукопашном бое, кикбоксинге, джиу-джитсу. Выражаясь образно: «Узбекистанские борцы вырастают из кураша».

Национальная борьба, все активнее заявляющая о себе, могла бы так и остаться праздничным мероприятием, собирающим любителей. С провозглашением независимости Республики Узбекистан дисциплина получила новый импульс развития, а затем обрела статус международной.

Комил Юсупов, первый заместитель председателя Федерации кураша Узбекистана, провел серьезные исследования в сфере национальной борьбы. Именно он считается создателем правил кураша. Расширяя границы, преображенный вид спорта требовал и собственной терминологии. Так вошли в международный лексикон выражения «таъзим» (поклон, почтение), «халол» (чистая победа), «тухта» (стоп), «ёнбош» (бросок на бок сильным красивым движением), «гирром» (нечестный прием), «дакки» (нарушение средней степени) и другие. Они даются пока с переводом, однако все прочнее уравниваются в правах с аналогичными профессионализмами.

Отличается и форма: просторная рубашка типа короткого халата (яктак) синего или зеленого цвета, свободные белые штаны и матерчатый красный пояс. Ничто не должно сковывать движений. Еще одно условие – встреча борцов проходит на гиламе, минимальный размер которого 14х14 метров, максимальный – 16х16 метров.

Днем рождения кураша как спорта, известного на международной арене, стало 6 сентября. В 1998 году создана Международная ассоциация борьбы кураш, а первый чемпионат мира состоялся в Ташкенте в мае 1999-го. Тогда в ассоциацию входили 28 стран, сегодня она объединяет более 130 национальных федераций. В 2010 году удостоилась признания Всемирного антидопингового агентства, играющего важную роль в подаче заявки на включение кураша в программу Олимпийских игр.

На Азиатских играх – 2002 в Пусане (Южная Корея) впервые организованы показательные выступления по узбекскому курашу. В 2003 году в соответствующий Регламент Олимпийского совета Азии внесено изменение: узбекская национальная борьба официально признана азиатским спортом. В 2005-м в музее «Олимпия» (Лозанна, Швейцария) состоялась годовая тематическая выставка.

На Азиатских играх 2006 года в Катаре с участием десяти государств прошли соревнования в четырех весовых категориях. С 2007-го на Азиатских играх по боевым единоборствам, состоявшихся в закрытых помещениях в Макао, дважды во Вьетнаме, дважды в Таиланде, Южной Корее, проходили состязания по курашу. На 36-й Генеральной ассамблее Олимпийского совета Азии (2017, 20 сентября, Ашхабад) впервые в истории наш национальный вид спорта официально включен в программу XVIII Азиатских игр, и в 2018 году в Индонезии атлеты из более чем 40 стран боролись за медали в данной дисциплине.

**– Превратить кураш в жемчужину мирового спорта... Призыв Президента услышан во всех уголках Узбекистана. Древнейшая культурная ценность становится ядром общенародного движения за здоровье, благородство, человечность, честь, которые заложены в основе национальной борьбы.**

– Не будет преувеличением сказать, что интерес к этому виду спорта растет изо дня в день. В настоящее время пытаемся собрать точные статистические данные о его приверженцах. Словно свершилось великое пробуждение, что подтверждается действенными мерами по развитию и популяризации национального единоборства. Продиктованы они не только престижностью внедрения узбекского культурного наследия на мировой арене. Кураш имеет непреходящее значение в воспитании подрастающего поколения, формировании высоконравственной личности, укрепления у молодежи чувства патриотизма. Лозунг «Вышел на арену – бейся честно!» исключает любые уловки, ведущие к псевдопобеде. Динамичные поединки запрещают болевые, ударные и удушающие приемы, проводятся на ногах, не допускают борьбы в положении лежа. То есть это простой и безопасный вид единоборств, требующий между тем хорошей физической подготовки и твердости характера.

Безопасность – основа привлекательности борьбы даже для детей. Родители, отдавшие ребенка 5–6 лет в секцию, могут быть спокойны: кураш – нетравматичный вид спорта.









**– В постановлении «О мерах по развитию и дальнейшему повышению международного авторитета национального вида спорта кураш» перед Федерацей кураша Узбекистана ставится ряд актуальных задач.**

– Причем каждая из них не уступает другой по степени важности. Привлечение к занятиям всех слоев населения, формирование материально-технической базы и инфраструктуры, включение кураша в программу по физической подготовке личного состава Вооруженных Сил и правоохранительных органов, обучение тренеров и судей, разработка методических пособий, производство спортивной экипировки «яктак» и матов «гилам», широкая пропаганда, в том числе через СМИ... Речь идет и о создании новых разновидностей кураша – женского, пляжного, боевого.

«Дорожная карта» определяет способы решения задач, поставленных не только перед нашей организацией. Лишь при условии взаимодействия многих структур национальная борьба станет жемчужиной мирового спорта.

Одобрены предложения Федерации кураша Узбекистана, Национального олимпийского комитета, министерств физической культуры и спорта, финансов, высшего и среднего специального образования по проведению с 2021-го с периодичностью раз в два года соревнований среди студентов в областных центрах, Нукусе и Ташкенте, международных турниров на Кубок Президента Республики Узбекистан в зарубежных странах, раз в год республиканского конкурса «Узбек полвони» среди работников госорганов, учреждений и организаций. Планируется поэтапное создание в 2021–2025 годах школ мастерства по курашу во всех регионах Узбекистана, где финансирование будет осуществляться за счет средств Государственного бюджета.

Благодаря такому усиленному вниманию к национальной борьбе мы можем говорить о переходе этого интересного вида спорта (в наших силах сделать его массовым!) на новую, более высокую ступень.

**– Прозвучала интересная идея о том, как связать кураш с туризмом...**

– Совместно с Госкомтуризма разрабатываем возможные варианты проведения борцовских шоу на популярных маршрутах. Безусловно, иностранным гостям (да и узбекистанцам) интересно понаблюдать за сражениями палванов. Увезут домой массу впечатлений, и в рассказах родным и знакомым будет фигурировать наша страна с ее бережным отношением к этноспорту.



**– Раз уж мы затронули живописные зоны Узбекистана, привлекающие зарубежных туристов, не могу не вспомнить Байсун, родину легендарного Алпамыша. Успехи сурхандарьинцев предопределены исторически?**

– Сурхандарья традиционно занимает лидирующие позиции, хороший потенциал у Бухары, Кашкадарьи, Самарканда. Ташкентская область в отстающих. В женском спорте впереди Наманган. К слову, именно в Байсуне находится специализированная школа-интернат, которую передали в ведение Федерации кураша. Натуральная природная селекция, как называют поиск самородков на поединках, хороша, хотя и требуется дополнительная огранка. Однако подготовка должна быть системной и целенаправленной, юные дарования следует с детства поддерживать профессионально.

**– Недостаточная материальная база озвучена в постановлении как одна из ключевых проблем, мешающих развитию и совершенствованию уникального единоборства и продвижению его на международном уровне.**

– Успешная подготовка спортсменов, способных отстаивать честь страны, зависит от многих составляющих. В современном мире, когда прогресс повлиял на все сферы жизни, невозможно работать по старинке. Раньше мастерство передавалось из поколения в поколения, в зависимости от регионов могли проявляться какие-то особенности. Сейчас речь идет об унифицированном подходе, общем для всех стран – участниц турниров.

Гиламы... Звучит красиво, а сколько их приходится на каждый вилоят? Ничтожно малое количество по сравнению со спросом. Всегда ли у мальчишек, собирающихся связать жизнь с национальной борьбой, есть тренер с соответствующим образованием? Имеют ли они зал для занятий? Все пункты взяты на особый контроль, по каждому принято решение, будет проводиться регулярный мониторинг состояния дел в этой области.

Начинается строительство Центра национального вида спорта кураш на площади в один гектар в Алмазарском районе Ташкента. Речь идет о современном комплексе, где планируется проводить чемпионаты мира, где гости столицы смогут воочию убедиться, какое значение придается борьбе, родившейся в народе.

Предстоит много потрудиться ради достижения конечной цели – добиться, чтобы кураш вошел в программу Олимпийских игр, чтобы его внесли в Список нематериального культурного наследия национальных игр этноспорта ЮНЕСКО, чтобы жемчужные россыпи побед узбекистанских палванов украсили все состязания мирового масштаба.

**Беседовала**
**Полина ЛАНСКАЯ**

# КУЛЬТ ПРО СВЕТ

## Слушая искусство

**В Ташкенте пройдут три спектакля и балет с аудиосопровождением при участии российской актрисы и тифлокомментатора высшей категории Ирины Безруковой.**



Постановки с ее участием – «Это я, Эдит Пиаф» в Молодежном театре Узбекистана, «Как баба Маша Колобка пекла» в Республиканском кукольном театре, «Золотой дракон» в театре «Ильхом» и «Лебединое озеро» в ГАБТ имени Алишера Навои. Технология тифлокомментирования позволяет людям с особыми нуждами воспринимать происходящее на сцене, слушая описание специалиста.

Детские спектакли состоятся при содействии проекта «Ko'ngil ko'zi», который занимается созданием благоприятных условий для социальной адаптации незрячих и слабовидящих.

## Студенты в кино

**Национальное агентство «Узбеккино» подписало Меморандум о сотрудничестве с Государственным институтом искусств и культуры Республики Узбекистан.**



Достигнута договоренность о привлечении студентов данного вуза к подготовке и съемке художественных, документальных, мультипликационных фильмов, национальных сериалов, а также совместных с зарубежными компаниями кинолент.

Теперь юноши и девушки смогут по согласованию с агентством на конкурсной основе участвовать в производстве кинематографической продукции.

## Дневник художника

**В столичном театре «Ильхом» состоялась персональная выставка Бобура Исмаилова «2020».**



В экспозиции 22 работы, созданные за период пандемии. Каждая картина словно мини-спектакль. «Долгая дорога домой» напоминает о величии гор, могуществе и силе природы. «Мартовское откровение» рассказывает о том, как в начале карантина каждая женщина стремилась порадовать близких кулинарными шедеврами и навести дома идеальную чистоту. «Каприз» – повествование о тонких и хрупких, как фарфор, оттенках чувств.

«Дневники нашей жизни не умещаются в календарные цифры и названия месяцев, ведь мы живем событиями. Мои воспоминания ушедшего года – картины и зарисовки», – говорит художник.

## #MuseumSelfie

**Под таким хештегом прошла всемирная сетевая акция, в которой приняли участие и музыкальные музеи Узбекистана.**



Интернет-пользователи из разных стран делились своими селфи на фоне экспонатов из любимых галерей и других учреждений культуры.

Многие отечественные музеи присоединились к акции и предложили посетителям публиковать оригинальные фотографии в узбекистанском сегменте социальных сетей. В частности, с таким призывом выступил Дом-музей Мухтара Ашрафи.

«Во время пандемии мы освоили многие онлайн-новшества. В этот раз наши гости делились «культурными» селфи и демонстрировали сопричастность к многовековым национальным традициям», – отметила директор дома-музея Наталья Гунова.

# Если бы они встретились...



*Алишер Навои и Захириддин Мухаммад Бабур (в этом году отмечается 538 лет со дня его рождения). Несколько зимних дней разделяют даты их появления на свет, а объединяют патриотизм, огромное желание внести свой вклад в расцвет страны, высокая поэзия.*

*Оба призывают человека к нравственному совершенствованию, осуждают жестокость, жадность, лицемерие, лживость.*

*Когда читаю рубаи Бабура, представляю, что строки «Твой стих – родник живой, твой стих – стихов султан» посвящены Навои. Во всяком случае, хочется думать именно так. Называя старшего собрата по перу человеком бесподобным, поэт-изгнанник писал: «С тех пор как на тюркском языке слагают стихи, никто другой не слагал их так много и так хорошо». Высоко оценил и композиторские способности Алишербека: «В музыке он сочинял хорошие вещи, у него есть прекрасные накши и пишравы».*

*Анализируя творчество Султана поэтов, Бабур стремился к объективности, не ограничиваясь восхищенными отзывами, высказывал свои замечания по поводу трактата «Весы стихотворных размеров» и персидскоязычного дивана, подписанного псевдонимом Фани.*



*Бабур мечтал увидеться с гениальным предшественником в поэзии. Он даже послал некоторые произведения на суд Навои. Встрече не суждено было состояться.*

*Если бы она произошла! Уверена, общение обогатило бы обоих. Это тот случай, когда взаимодействие талантов способно рождать новые шедевры.*

**Шахноза САИДОВА,**
**студентка 2-го курса Ташкентского финансового института**

МЫСЛИ ВСЛУХ

# Праздник щедрого сердца

***Вряд ли кто-то станет отрицать, что мы проживаем множество праздников и подчас даже не знаем их названий. Каждый день какая-нибудь дата. А то две или три. Бывает и больше.***

К примеру, 17 февраля отмечают Международный день спонтанного проявления доброты, предложенный благотворительными организациями. Какая надобность в такой формулировке? Есть же Всемирный день доброты! Просто это слово может быть наполнено очень разным смыслом...

Думали ли вы в детстве, доставляя в гнездо только-только вылупившегося птенчика, что ваши старания бесполезны? Нет, упорно карабкались на дерево, пытаясь спасти живое существо. Как правило, первой реакцией на разбитые коленки подруги были объятия или ободряющее поглаживание. И ведь верили в силу ласкового участия.

Учредители праздника щедрого сердца предупреждают: «Старайся быть чутким и внимательным ко всем. Причем делай это бескорыстно. Такие поступки должны сами по себе приносить удовольствие».

Помните, в фильме-сказке «Морозко» Иванушка, за гордость и равнодушие превращенный в медведя, пугает людей, вроде бы имея благие намерения: «Кому доброе дело сделать?» Прежний облик возвращается к молодцу тогда, когда он искренне задумывается, как бабка станет ходить без клюки.

Доброе дело – спектакль для зрителей обесценивает самые искренние порывы, потому что превращается в предмет самолюбования, предполагает оценку окружающих и благодарность в ответ. А это уже своеобразная плата.

«Участием друг к другу люди живы» – цитирую эти строки и задумываюсь об обилии «теплых» аналогов, характеризующих того, кто с открытым сердцем готов прийти на помощь. Не раздумывая, не взвешивая «за» и «против», не подсчитывая моральную и материальную прибыль. Добросердечие, душевность, благость, добродушие, отзывчивость, гуманность, мягкость, участие. Будьте такими – и разум подскажет, как поступить!

...Пришла новая беда к врачу-кардиологу Муножат: ее дочь с серьезными нарушениями слуха стала слепнуть. Операцию сделать готовы, но в Германии. И за космическую по нашим меркам сумму. На второй день в чате, где объявили сбор денег для Муштарий, оказалось более трех тысяч человек.

...Переходя дорогу, школьница увидела, как за ней щенок увязался. Маленький, ласковый, несмышленый. Взяла его на руки, отнесла на другую сторону. Несколько раз пришлось возвращаться. Кричит девчонка, хозяев зовет – никого. Незнакомая женщина согласилась за шустрой собачонкой приглядеть, чтоб ненароком под машину не попала.

...К Нодире-опе, приветливой хозяйке магазина канцтоваров, собираются покупатели со всей округи. Теплой улыбкой встречает девчушку с особыми нуждами. Частенько продавщица дарит гостье наборы цветных ручек. Да так, чтобы никто не видел.

По-разному проявляется доброта, но всегда одаривает теплом обе стороны. Пусть путеводителем в жизни для каждого станет пословица: «Сей добро, посыпай добром, жни добро, оделяй добром!» Поверьте, мир изменится.

**Ольга АЛЕКСАНДРОВА**





***Onasi olamdan o'tganda u endi esini taniyotgan bola bo'lgan. Ammo bola qalbidayam onasi qattiq muhrlanganini bultur kuzda noxos ilg'ab qoldim. Amir Temur haqida bir kitob berdi menga... Yo'q, uni og'iz to'-o'ldirib, "Kitobxo-on" deyolmayman. Shunchaki, tarixga o'ch. Ayniqsa, tariximizdagi sarkardalarga, shohlarga... Amir Temur bobida gap ketsa-ku, o'zining otiniyam esdan chiqargudek kayfiyatga minadi! Qo'yib bersang, ertalabgacha "Amir Temur"lab chiqadi.***

# O'LMAS jonlar

## yoki bir "papka" hujjatdan bir xalta tappigacha

*(Esse)*

Maktabda unga "Kashshey" deb, laqab yopishtirgandik. Bundan u xursand bo'larmidi yoki xafa... eslolmadim. Eslaganim, qisiq ko'zlarini yanayam qisgancha, tirjayi-ib qarab turaverardi. Unga sayin biz ham hazilni hangomaga, hangomani mazaxga "xamirturush" qilib, laqillayverardik. Bo'lmasa-ku gavdasi qoruvli, baquvvat bola. Yolg'ondan urib qo'ysayam, rostdan turolmay qolishimiz aniq... Ko'ngliyam kengda! Shuni bilganimiz uchun ham haddimiz sig'ardi hazil-mazaxga.

Yillar o'tdi. O'zimizcha ulg'aydik. Va shunga yarasha o'zgardik ham. Buni bugun maktabdosh jo'ralar ahyonda o'tiribnetib qolganimizdayam payqash qiyinmas. Zahrimizga yutvolgan uch-to'rt piyola "uying kuygur" ta'sirida yoppasiga aljiray ketamiz. "Milisa"miz siyosat urishga o'tsa, "maalim"imiz bolalarning tarbiyasi rasvoligidan oladi. "Konchi"miz cho'lning havosi xit qilganidan kelsa, "bankda ishlaydi"ganimiz kreditdan ketadi. Men barchasini bitta qilib, "g'idi-bidi"layman... U esa, garchi butilka bo'shatishda mutlaqo qatnashmagan bo'lsa ham, "kayfi bor"lardan battarroq qizarib-bo'zarib, bahslashadi. O'tirganlar bilan bitta-bitta, erinmay tortishadi. Bexabar bir odam kirib qolsa, ha-a, eng ko'p araqni shu ichipti-da, deb o'ylashi tayin.

— ...ichishni qanday tashlagansan, jo'ra?, — xuddiki po'stini tashlagan ilonni so'roqqa tutganday, horiqulodda hayrat bilan so'raymiz.

— E, ko'p tentakchilik qildirg'an, shu ichkilik! — olis bir zamona xotirotini so'zlaganday, vazmin javob beradi uyam. — Keyin... oshnamiz Xirojam qaytarg'an. Namoz o'qib qoluvdi-ku, bir paytlar... Hozir u namozdi tashlagan, men ichkilikdi...

Buvasiga "dum bo'lib", kattargani uchun gap-so'zlari ham chollarga monand: salmoqla-ab, ezili-ib, maqol-matal qo'shi-ib gapiradi. Elda u tanimagan odam yo'q. Oilalar haqida mahalla raislaridan ko'ra tuzukroq boxabar. Kimning qizi qayerga tushgan, hozir nechta bolasi bor, kim qayerga ishlashga ketgan... u tirik "ma'lumotxona". Erinmay, hijjalab aytib beradi.

Otasi Jalil aka qulog'i og'ir odam edi. Baqirib-baqirib gapirsakkina eshitardi. O'zi traktorchi zotining qulog'i "yengil"ini ko'rmadim hech. Ikki yilcha burun uylarining yonginasidan oqib o'tgan katta ariqdagi temir suvbandni ko'taraman deb, bir qalqqan-u yuragi "ushlab qolgan"... Xudoyisiga borganimizda, darvozada qoyim jo'ramiz, bu dunyosida ortiq suyanchig'i qolmaganini to'kis tuygan kabi o'z dardiga suyangancha adl turardi.

Onasi olamdan o'tganda u endi esini taniyotgan bola bo'lgan. Ammo bola qalbidayam onasi qattiq muhrlanganini bultur kuzda noxos ilg'ab qoldim. Amir Temur haqida bir kitob berdi menga... Yo'q, uni og'iz to'-o'ldirib, "Kitobxo-on" deyolmayman. Shunchaki, tarixga o'ch. Ayniqsa, tariximizdagi sarkardalarga, shohlarga... Amir Temur bobida gap ketsa-ku, o'zining otiniyam esdan chiqargudek kayfiyatga minadi! Qo'yib bersang, ertalabgacha "Amir Temur"lab chiqadi. Bir o'g'lining ismini "Temurbek" atash uchun uylanganidan beri g'ayrat qilyapti. Niyatiga yarasha Xudoyam bir emas ikkita o'g'il berdi. Taassufki, birida qaynotasi, birida yana kimidir "muxolif kelib", bul ismi muboragini qo'ya olmadi haligacha. Unisini — Islombek, bunisini — Ulug'bek qo'yishdi. Ammo hanuz niyatida sobit...

Alqissa, menga bergan kitobining varaqlari orasidan "to'p" etib bir rasmcha gilamga "kalla tashlagandi". Olib qaradim: oq-qora, mitti formatdagi, ko'-o'hna rasm. Istaraligina, odmi kiyingan bir ayol ikki jujuqchasi bilan tushgan... O'ziga ko'rsatdim, bir-ikki kundan keyin:

— ...ayam bu! Manovisi opam, bunisi men... — degandi-yu tomog'iga nimadir tiqilganday gapirmay qo'yuvdi, — ...ha, shu ko'zimdan bir nima chiqyapti-da, namlangani namlangan...

Onasining barvaqt vafotidan so'ng, otasi, yosh-yosh qolgan bolalarini o'yladimi, boz uylangandi bir ayolga. Ne shomki, o'gay onaga jo'ramiz, jo'ramizga o'gay ona... tatimadi. Ular hali-hali bir idishdagi suv bilan moydek...

Maktabni tugatgach, bir muddat biz "to'plamchilar"ga (abituriyent) qo'shilib, daftar-kitob qo'ltiqlab yurdi. Repitetorga qatnadi... Qaradiki, kallasiga bilim uyini topolmayotgan chumoliday kirolmadi-kirolmadi. Bor-ey deb qog'oz-ruchkani yig'ishtirdi-da armiyaga jo'nadi. Jo'nagandayam uncha-munchasigamas, Toshkentning "Uch qahramon"idagi "chas"ga ketdi. Biz esa hadeb o'qishga topshiraverdik-topshiraverdik. Yana yaqinroqqa hammas, naq Toshkentga, ko'r chumchuqday urardik o'zimizni...

Harbiy xizmatdan qaytgan jo'ramiz ancha vaqtgacha "grajdanskiy" hayotga ko'nikolmadi. Haytovur, "ligota" olib qaytganakan, Navoiy kon-metallurgiya instituti talabasi bo'ldi. Shu orada uylandiyam. Uylanishi ham turfa rivoyatlarga turtki bo'ldi. Uydagilarining ne-ne orzularda mo'ljallab qo'ygan jamiki "kandidat"larini qati'yan rad etib, Konimex taraflardan tanlaganiga bor "ovozini berdi".

Talabalikning qoq yarmida o'qishni tashladi. Hammasiga "tilla" aybdor... Yo'q, "tilla" jilvasida ba'ni Paxtachini "gipnoz qilgan" tirikchilik aybdor! Jo'ramiz-da ko'p qatori xomcho't qoqdi, o'sha mahallar: "...nima uchun o'qiyappan, o'zi? Diplom uchun! U nimaga kerak, o'zi? Davlat ishiga kirish uchun!.. Shu davlat beradigan bir oyliqdi tillag'a chiqib, bir haftaga qolmay topsam, gazagimga dorimi, shu o'qishi?!". Ugina emas, qancha-qancha yigitlar o'qish-u ishidan kechib ketdi o'shanda. Vaqtning oliy hakamligi chin ekan. Bugun bari anglab yetyaptiki, o'qib, ilm olganga, "davlatti odami" bo'lganga yetmas ekan!..

O'sha kuni tumanimiz markazidagi bir idora poyida, asabiy avzoda telefonga tomoq yirtardim. Qayoqdandir u paydo bo'ldi: qisiq ko'zlarini yanayam qisgancha, tirjayi-ib qarab kelardi. Qo'llarida bir "papka" hujjat. Ko'rishdik. Irimiga so'radim:

— ...nima dardda yuribsan?

— O'qishimdi tikladim, oshna. "Zauchni"g'a, faqat...

— Iye, qulli bo'sin! Nechchi yil deganda qaytding?

— Yetti yil... Shu tillani, toshdi, tog'di o'ylasam, bir joylarim og'rib ketuvradi. Toza jonimg'a tegdi, hammasi! O'qiymaney, onasini emsin! Ertagayam jon kerak, menga...

— Buncha qog'oz nimaga?

— Ey-y, shu bankka-da... "Kantrakt" bo'yinga ilindi. Yetti millionli boyvachcha bo'ldim-qoldim. Shunga-a... kredit olaman desam, biranta binkda ta'limga limit jo'g'akan. A, biyaqda bir hapta srogim qoldi. Qaydan topdim endi, shuncha puldi, kallam qotdi, oshna-a...

"Polvonlik qonim qo'zidi!" deb yozadi Tog'ay Murod, tarjimai holida. Shunga o'xshab, meniyam muxbirlik qonim qo'zidi. Birga-birga tuman hokimiga tikka borib, aytarimizni aytdik. Hokim uzil-kesil lafz qildi: "...yordam beramiz!". Biroq maxluqning emas, Xoliqning aytgani bo'larkan. Shu-shu bir hafta "tinchib ketdi" tuman hokimligi. Axiyri amallab, tagiga yetdikki, hokim ham, o'sha lafziga binoan biriktirilgan mas'ullar ham "kovid"ga chalinib qopti. Shartnoma muddati esa tugab borardi. Boshqa yo'llarini axtardik. Va quyosh Kun.uz saytidan chiqdi! Aniqrog'i, saytning Samarqand bo'limida Haqni tanigan, oxiratini bu dunyoning "qilpang-jilpang"iga alishmaganlar bor ekanki, jo'ramiz o'qishiga zarur bo'lgan yarim yillik shartnoma pulini — uch yarim million so'mni ehson etishdi!..

Qolgan yarmiga, lafzidan chiqqan holda, tumanimiz hokimi yordam berdi. O'-o', jo'ramizning shodligi dunyolarga sig'masdi! Turib-turib, hokim nomiga "Tashakkurnoma" yozmoqchi bo'ladimi-yey. "Kelishtirib bir rahmatlarimdi yozib senga bersam... sen uni gazitga bersang... qanday bo'ladi, oshna?", derdi, o'zicha hapqirib. Kulimsib, yelkasiga qoqardim:

— ...yo'q, jo'ra! Men o'z vazifamni bajarib bo'ldim. Hokimam o'zining vazifasini bajardi... Mayli, duo qil, hurmat qil, joyi kelsa, bahosini qil... Boshqasi ortiqcha, deb o'ylayman...

— Shundayliqqa shunday-ku-u... In-ndamay ketishgayam bet chidamayapti-da?.. — o'yga cho'mib qolardi.

Indamay ketmadi, darhaqiqat. Bir yakshanbada uyg'onib qarasam, uyimizdagi pechga dadam tappi qalayapti. Tappiki, barkashday-barkashday. Bilsam, uxlab yotganimda, u katta xalta to'la tappini yelkalab kepti-yu supaga suyab, qaytibdi. Kirmabdiyam, meni uyg'otishlariga ko'nmabdiyam. Tavba, o'zi-ku uyidagi pechga eski-tuski poyabzallarini yoqib o'tirgandi...

Sessiyasini yopdi. Ulgurdi... Hozir "IJ" mototsiklini varillatib, tog'lar orasida yelib borayotgandir, ehtimol. Yoki Konimexda, qishning sovug'idan sog' opchiqib olay degan xavotirda obborib qo'ygan bolalarining oldida, qaynotasining uyidamikin. Balki, qishloqning qaysidir xilvatidagi tegirmonda navbat kutib o'tirgandir. Tegrasidagi qay bir "tillachi"ga tarixdan kuyib-pishib, va'z aytayotgan bo'lsa ham, ajabmas: "...shunday qip Amir Temur otig'a shappa minganda, cho'ldi o'-o'rtasig'a borip, qumg'a cho'k tushgan. Xudog'a so'z bergan, endi ichkilik-pichkilikdi tashayman, degan!".

Uning tilida, uning talqinida tarixiy shaxslar go'yo bir qo'shnisidek qad rostlaydi. Ular to'g'risida ko'zi bilan ko'rgandek, zarracha gumonsiz gapiradi. Qo'liga tushgan kitobni, ilmi zo'r Temurshunosnikimi u, "temirchi"nikimi u... ishonib o'qiyveradi. Ishtaha bilan o'qiydi. So'ng mavrid-bemavrid aytib berishga tushadi. Beg'araz so'zlarini tinglab, tang qotadi, kishi. Temur o'lmagandek, xuddi. Uzo-oq bir o'lka fathiga ketgan-u erta-indin qaytadigandek... Ha, uningcha, Sohibqiron ham, Mirzo Ulug'bek ham, Hazrat Navoiy ham, shoh Bobur ham... "o'lmaydigan jon"lar! O'LMAS jonlar...

**Sherbek BOBOQULOV**

TA'LIM TARAQQIYOTI

# AYOLNI O'QITIB, KELAJAKNI TARBIYALAYMIZ

***Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilishning istiqboldagi rejalari belgilab berildi.***

Ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lishi lozimligiga alohida urgu bergan holda, oliy ta'lim tizimida quyidagi masalalarga e'tibor qaratildi:

*Birinchi masala* — oliy ta'limning qamrovi va sifatini oshirish.

Ma'lumki, hozir qabul kvotalari 2016-yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sib, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 25 foizga yetdi. Yaponiya, Kanada, Fransiya, Shvetsiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Janubiy Koreya davlatlarida deyarli barcha bitiruvchilar oliy ta'limga qamrab olinishini hisobga olsak, bu boradagi ishlarni tizimli davom ettirish zarur. Shu bilan bir qatorda, oliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, talabalarda "soft skills" ko'nikmalarini shakllantirish va uni doimiy rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

*Ikkinchi masala* — davlat grantlari sonini 25 foizga oshirish orqali ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga yetkazish.

Mazkur yangilik xotin-qizlar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, gendir tengligi tamoyilini samarali tatbiq etishni ta'minlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Bunday imkoniyat nafaqat yoshlarimizning ta'lim bilan qamrovi darajasini oshirish, balki gender tengligini ta'minlagan holda, intiluvchan, zehni o'tkir qizlarimizga ta'lim olish imkoniyati yaratiladi. Ayol kishining bilimli bo'lishi farzandlarning ta'lim-tarbiyasi, jismoniy va ma'naviy barkamolligiga katta ta'sir o'tkazadi. Bu davlatimizning ijtimoiy sohadagi izchil va uzoqni ko'zlagan ijtimoiy himoyani ta'minlashga qaratilgan siyosatidan darak beradi.

Shuni to'g'ri anglagan holda, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada kabi mamlakatlarda ayollar uchun grant dasturlari tashkil etishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu grantlar nafaqat bilim olishga, balki keyinchalik jamiyatda o'z o'rnini topishiga ham ko'maklashish maqsadida yo'naltiriladi.

*Uchinchi masala* — oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatni shakllantirish. Bu orqali universitetlarda ta'lim tizimini rivojlantirish, talabalarni jalb etish maqsadida yangiliklarni joriy etish imkoniyati yaratiladi.

*To'rtinchi masala* — oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimining uzviyligini ta'minlash.

Shaxsning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida oliy ta'lim tizimini isloh etishning o'zigina yetarli emasligini hayot ko'rsatib turibdi. Shu maqsadda, bir qator akademik litseylar oliy o'quv yurtlariga biriktirilib, ularda ta'lim sifatini muntazam oshitib borishga hamda o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnalogiyalarini tatbiq etishga ko'maklashiladi. Iqtidorli bitiruvchilar saralab olinib, ularga oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom etirishga imkoniyat beriladi. Texnikumlar esa amaliy tayyorgarlik darajasini oshirish maqsadida turdosh oliy o'quv yurti va tarmoq korxonalariga biriktiriladi.

Bu oliy o'quv yurtlari bilan akademik litseylar o'rtasida integratsiyani kuchaytiradi hamda kadrlar sifatini oshirishga hizmat qiladi.

Mazkur yangilik yoshlarni oliy ta'lim tizimi bilan qamrab olish, keyinchalik ularning ishga joylashishini hisobga olish va hisobotini yuritish imkonini beradi. Qolaversa, akademik litseylarda o'quv dasturlari o'zaro aniq muvozanatlashtirilgan holda puxta ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

*Beshinchi masala* – "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlariga yuboriladigan yoshlar sonini 5 barobarga oshirish.

Zamonaviy dunyo global muammolarni faqatgina birlashib, bilim va tajriba almashibgina hal etishimiz mumkinligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib, nufuzli xorijiy oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik qilish, ulardan olingan bilimlarni mamlakatimiz ravnaqi uchun qo'llashga alohida e'tibor qaratildi.

*Oltinchi masala* — ilm-fan va innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratish. Ushbu sohada oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida doktorantlar sonini oshirish, bunda davlat buyurtmasi uchun qo'shimcha mablag' ajratish, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining ilmiy unvon va ilmiy darajalarni berishda mustaqilligini ta'minlash rejalashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimining jadal rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini oshirish, tinch-totuvligini ta'minlash, jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishga xizmat qiladi.

**Nodirbek SALAYEV,**
**Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori, yuridik fanlar doktori, professor**



***Millatning ko'rki va kelajagi bu, shubhasiz, baxtli ayoldir. Bunday ayolning kamol topishida ota-onaning o'rni beqiyos, albatta. Ma'naviyatli, iboli-hayoli, irodali, saranjom-sarishtalik qiz uchun eng kerakli fazilatlar ekanini anglagan ota-onaning o'zi bu borada o'rnak bo'lishga intiladi.***

***Qiz bola tarbiyasi o'ta nozik masala. Qizlarni bejiz gulga qiyos etishmaydi. Qiz bola ota-ona mehridan unib o'sadi, tarbiya topadi.***

***Xo'sh, oilada qiz bola dunyoga kelgach, ota-ona nimalarga e'tibor berishi kerak? Ulardan qanday ko'nikmalar talab etiladi?***

***Mavzu yuzasidan mutaxassislarga murojaat qildik.***

# Ona sirdosh, ota do'st bo'lsin

MULOHAZA UCHUN MAVZU

**Zarnigor ASADOVA, parapsixolog:**

*— Qiz bolaning mukammal tarbiya olishida ham ona, ham ota birdek mas'ul. Ota va qizaloq o'rtasida sof muhabbat bir umr saqlanib qolishi kerak. Aksariyat xonadonlarda farzandlarga qiz bola voyaga yetgach, turmush qurgach, ota va qiz o'rtasida ko'rinmas parda, masofa bo'lishi kerak, deb singdirib boriladi. Aslida bu to'g'ri emas. Sababi qiz bolada doim qizaloqlik, mashuqalik, bekalik va onalik kabi to'rt turdagi energiyaga ehtiyoj bo'ladi. Ayniqsa, qizaloqlarga xos erkalik qilgisi keladi. Otasining mehriga yetarlicha to'ymagan qizlar bu mehrni boshqalardan izlaydi. Qolaversa, otasi bilan rishtalari yaxshi bo'lgan qizlar boshqa bir erkak bilan oradagi munosabatni to'g'ri o'rnata oladi. Ota mehriga to'ymagan qizlar kelajakda turmush o'tog'dan otalarga xos mehrni talab qiladi. Bunday qizlar o'z farzandlariga ham yetarlicha mehr berishni uddalay olmaydi.*

*Ona va qiz o'rtasidagi rishtalar mehr-muhabbat asosiga qurilishi, ular bir-biri bilan yaqin sirdosh bo'lishi zarur. Qizlar bolalik davrlarida arzimas hodisalarni ham juda muhim sirdek onasiga ishonib aytadi. Buni jiddiy qabul qilmagan onalar qizining yonida kulgili bir hodisani gapirib berayotgandek begonalarga qizim menga bunday dedi, deb hazilga olib farzandi ishonib aytgan sirini fosh qilishadi. Shu oddiygina hodisa tufayli qizlar onani yaqin sirdosh sifatida ko'ra olmaydi. Shuning uchun onalar qizlari bilan bolalik chog'laridayoq sirdoshlik, dugonalik rishtalarini mustahkamlab olishlari zarur.*

**Dilorom G'IYOSOVA,**
**Jizzax shahridagi 17-umumta'lim maktabining amaliyotchi psixologi:**

*– Qiz bola tarbiyasi nafaqat oiladagi muhitga, balki mahalla, yon-atrofidagilarga qarab shakllanadi. Maktabimizda o'quvchilar bilan suhbatlarimdan bilamanki, tarbiyasi og'irroq qizlarning onasi turmushidan ajrab, farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan yoki ota-onasi farzandini biror yaqiniga ishonib, chet elga ishlashga ketgan bo'lib chiqadi. Ularga ota-ona mehri yetishmayotgani shundoqqina sezilib turadi. Ba'zi qizlar ota-onasi ajrashib, onasining ichish, chekish kabi zararli odatlarga berilganidan nolisa, yana boshqasi ota-onasini sog'inganda ularning bag'rida bo'la olmasligidan shikoyat qiladi. Shunday ekan qiz bolaning tarbiyasida, avvalo, to'liq oilaning o'rni beqiyos.*

**Karimov OOLIMJON,**
**Peshku tumani "Bobo-Arab" jome' masjidi imom-xatibi:**

*– Xalqimizda "Onasini ko'rib, qizini ol", degan gap bor. Buning zamirida katta ma'no mujassam. Oilada qiz bola onasining yurish-turish munosabati, hunarmandligi, chevarligidan dars oladi, shu xislatni hayotga tatbiq etishga harakat qiladi.*

*Yoshlikdan qizlarni ozodalikka, shirinsuxanlikka, o'zidan kattalarni doimo hurmat qilishga undash va o'rgatish lozim. Qiz bola nomiga bir dog' tushsa, bu dog' hech qachon ketmaydi.*

*Payg'ambar alayhissalom: "Jannat onalar oyog'i ostidadir", deb marhamat qildilar. Kelgusida qizlar bo'lajak ona, ardoqli uy bekasi bo'ladi. Biz qizlarimizga hayotning past-balandini, turmush qiyinchiligini yengib o'tish sirlarini uqtirib o'tishimiz shart. Har bir ona turmushga chiqayotgan qiziga u kelin bo'lib borayotgan xonadon aziz va qadrli ekanligi, qiz bola kelin bo'lib tushgan xonadonida toshdek qotishini uqtirishi lozimdir.*

*Onalar o'rtasida qizlar tarbiyasiga oid gap ketsa, ko'pincha "Oq qanddek avaylab, gard yuqtirmay o'stirdim", deyishadi. Oq qand! Darhaqiqat, juda nozik o'xshatish. Nozikligi shundaki, oq qandga biror gard yuqsa, uni tozalash qiyin. Gard tekkan joyini kesib yoki qirqib olib tashlash kerak. Ko'pincha esa gard tekkan qand bo'lagi mol oxuriga yoki parranda donlari orasiga tashlab yuboriladi.*

*Shuning uchun ham xalqimiz qiz bolaning ma'naviy yetuk, komil inson bo'lib o'sishi uchun alohida ahamiyat beradi. Uni oq qanddek o'rab, avaylab, gard yuqtirmaslikka harakat qiladi.*



Mutaxassislar fikricha, qiz bola o'zini mustaqil his qilishiga yordam berish, uning intilishlari va istaklarini tushunishga harakat qilish, imkon qadar bo'sh vaqtini birga o'tkazish, oilaviy ziyofatlar, qarindosh-urug'larni birgalikda ziyorat qilish, u bilan iliq munosabatda bo'lish, hayotdan zavqlanish va sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishiga imkon berish, uning fikrini hurmat qilish, bir so'z bilan aytganda, unga erkinlik berish darkor.

Albatta, uning har bir qadamini kuzatishingiz, har qanday hodisaga o'z nuqtai nazaringizni tushuntirishingiz kerak. Agar qiz bola ota-onasining qo'llab-quvvatlashini his qilsa, tashqi va ichki dunyosidagi o'zgarishlarni xotirjam va ongli ravishda qabul qilishni o'rganadi.

**Iqbol PARDAYEVA**

*O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligiga*

**Tong saharda tiniqib uyg'ondim. Quyosh hali dashtlarga tutash tog'lar ortida, yer yuziga bo'y ko'rsatishga taraddudlanayotgandek...**

**Tushimga Abdulla aka kiribdilar – o'sha menga tanish qiyofada. Ko'nglimning ravshan tortgani shundan. Nigohlari sal so'lg'inroq, ammo ishonasizmi, ajib bir nur taralib turibdi yuzidan. So'z zargari bo'lganimda ham men u qiyofani tasvirlashga ojizlik qilardim...**

**Eh, Abdulla aka... Shunday ulug' odam keldi-yu ketdi...**



# ADO BO'LMAS QARZ

Qish hali oyoqlamagan, sovuq damlar edi. Shoir G'afur G'ulom nomidagi nashriyotga kirib keldi. Egnida o'ziga yarashib turgan bejirim palto, shapkalarini eti qocha boshlagan panjalari bilan g'ijimlab olgan.

Yo, tavba! Shu kichkina jussa bilan xonaga go'yo quyosh ham bosh suqdi, hamma joy nurga chulg'andi.

Shoirni ko'rgan noshir shoshib qoldi:

– I-ye!.. Assalomu alaykum, Abdulla aka!

– Va aleykum assalom.

Noshir ulug' shoir iqboliga shoshildi, ehtirom va tavoze bilan joy ko'rsatdi:

– Qani, qani...

Qisqa hol-ahvol so'rashgan bo'lishdi.

– Kitobimni nashr qilish haqidagi taklifingizdan juda xursand bo'ldim, uka, – dedi Abdulla aka qashqadaryocha kalorit bilan samimiy ohangda. – Keyingi paytlarda kitob chiqarish og'ir bo'lib ketdi. Qaysi nashriyotga borsang, pul yo'q, deydi. Ammo siz kitobingizni chiqaramiz, deb qo'ng'iroq qilganingizga, bir xursand, bir hayron bo'lib kelyapman. Bunday taklif uchun, avvalo, nashriyotga rahmat.

– Arzimaydi, Abdulla aka. Sizdek shoirning kitobini nashr qilish biz, noshirlar uchun baxt.

– Balki-i-i shundaydir, – so'zlarni cho'zib, salmoqlab gapirdi shoir, – ammo sal oldinroq bir nashriyotning rahbari meni juda xafa qildi. Bir kun qabuliga kirib, unga kitobimni nashr qilish niyatim borligini aytdim. Direktor mablag' yo'qligi, nashriyotlar "o'tirib" qolganligidan diy-diyo qildi. Bunisi-ku mayli, yana nima dedi deng: "Abdulla aka, hozircha kitobingizni nashr qila olmaymiz-u, ammo she'rlaringiz ajoyib, ayniqsa, "Sen yetim emassan" she'rini zo'r yozgansiz-da"... Ochig'i, qattiq ranjidim. Kitob chiqaradigan nashriyotning boshida shunday odam o'tiradimi?! "Sen yetim emassan"ni ustoz G'afur G'ulom yozganini O'zbekistonda yetti yoshdan yetmish yoshgacha hamma biladi-ku?! Bu sohaning rahbarlariga ham hayronsan. Tavba!..

– Ustoz, ko'nglingizga olmang. Kitobingizni mana biz ko'p nusxada chiqaramiz, yaxshigina qalam haqi ham beramiz. Faqat bitta shartimiz bor.

Abdulla aka noshirga yalt etib qaradi.

– Ana aytmadimmi, o'zi ishonqiramayroq keluvdim, baribir bir balosi bor, deb.

– Yo'q, unday emas, ustoz! Shartimiz shuki, ruxsat bersangiz, kitobga kiradigan barcha she'rlarni o'zim tanlayman, ketma-ketligini ham o'zim tuzaman.

– Ha, bundaymi? Bu shartga roziman, – deb Abdulla aka gavdasini stul suyanchig'iga tashladi. – Ochig'i, bu ishga mening ham uncha hushim yo'q. Hammasini Doniyor yig'adi. Taniysizmi uni, shogirdim, Doniyor Begimqulov. Yozgan she'rlarimni ana shu ukam yig'ib, sarishta qilib yuradi. Bo'lmasa, hammasi bir yerlarda qolib, yo'qolib ketardi. Men unga aytaman, siz bilan bog'lanib, yordam beradi.

Abdulla aka biroz sukutga ketdi.

– Endi yana bir narsadan xijolatdaman. Menga qilgan bunday yaxshiligingizni qanday qaytarsam, deyman. Ammo qo'limdan hech narsa kelmaydi. Tug'ishganimday bo'lgan Doniyorgayam hech narsa qilolmadim, yordamim tegmadi. Shundan ba'zan siqilaman.

Noshir birdan hushyor tortdi.

– I-ye, ustoz! Bu haqda aslo o'ylamang! Siz bizdan emas, aksincha biz sizning oldingizda burchlimiz. Siz millionlab she'riyat ixlosmandlariga onani, Vatanni qanday sevishni, kindik qoni to'kilgan yurt uchun yonib-kuyib, jonni berib yashashni o'rgatdingiz. Sizning dilbar va betakror she'rlaringiz bilan qalbimizga Vatan harorati, nasimlari, muhabbat to'lqinlari kirib keldi...

To'lqinlanib ketgan noshir darhol o'zini o'nglab oldi:

– Ustoz, beadablikka yo'ymasangiz, yana bir voqeani aytib beraman.

– Mayli.

– Yoshligimdan kitobga o'chman, kammi, ko'pmi harqalay anchagina kitob o'qiganman. Kitob bilan aqlim kirgan va kitobdan ko'p narsa topdim. 7-sinfda o'qib yurgan kezlarim edi. Maktabimizning shundoqqina yonida oziq-ovqat do'koni bor edi. Do'konning bir burchagidagi shkafda kitoblar ham terib qo'yilgan bo'lardi. Men har kuni shu do'konga kirib, kitoblarni maroq bilan tomosha qilardim. Yangi, ko'zni jovdiratadigan rasmlar solingan rango-rang kitoblar rastaning orqasida, qo'l yetmaydigan javonda turardi. Do'kondor ularni hadeganda bizning qo'limizga ko'rishimiz uchun olib bermasdi. "Puling bo'lmasa, nima qilasan qo'lingga olaverib, kitobga qo'lingni qorasi uradi. Qo'ling yuvilganmi, yo'qmi" derdi yengilgina, hazil aralash dashnom berib.

Bir kuni katta tanaffus paytida, maktab hovlisida bolalar bir-birini quvalashib, shovqin-suron qilib yurishibdi, men yana do'konga kitob tomosha qilishga kirdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, burchakdagi kitob jovonchasida yangi bir kitobga ko'zim tushdi. Kichkinagina, yashil va och ko'k aralashib ketgan rasmda soy bo'yida novdalarini shamol tortqilayotgan tasvir aks etgan, yumshoq muqovali kitobcha. Muqovaga "Yurtim shamoli" deb shu qadar bejirim qilib yozilgan-ki, ko'zingiz quvnab ketadi. Kitobga termulib tursam, rasmdagi majnuntol, novdalarini tortqilayotgan nasim vujud-vujudimga singib ketayotgandek... Hayajondan yuragim tez-tez ura boshladi.

Keyingi kuni katta tanaffusda yana do'konga kirdim, o'sha men kecha ko'rgan joyda "Yurtim shamoli" olovdek yonib turibdi...

Uchinchi kuni kitobchaga termulib tursam, qulog'imga yoshi ulug'roq odamning ovozi eshitildi, qayrilib qaradim. Tanidim, Temur aka. U kishi qishlog'imizdan, kolxozning qurilish brigadasida ishlaydi.

Temur aka magazin peshtaxtasi oldida menga kulibsirab qarab turibdi. Salom berdim.

– Ha, Mavlon akamni o'g'li, sepkildor, oting nima edi?

Iymanib, uyalib ismimni aytdim.

– Nima qilib turibsan bu yerda? O'qishlaring yaxshimi?

– Yaxshi, rahmat.

Magazinchi bir narsalar olib Temur akaga uzatarkan, suhbatga aralashdi.

– Bu juda g'alati yigit. Har kuni do'konga kirib, "Yurtim shamoli"-ga termulib turgani-turgan. Puli bo'lsa-yu, sotib olsa-ku, mayli. Puli yo'q, lekin kitob olmoqchi. Bu-ku yaxshi yigit, lekin, bunga o'xshagan yana to'rt-beshtasi bor, kitobni olmaydi-da, olib bering, bir ko'ray, bir ko'ray, deb bezor qilishadi. Tanaffusda quvlamachoq o'ynab, yerlarga dumalab, qo'llari tozami yo'qmi, yangi kitoblarni xo'rda qilib tashlashadi. Keyin men uni kimga sotaman, yuzi kir kitobni kim oladi?

Do'kondan chiqib ketishga chog'lanib eshikka burilgan Temur aka to'xtadi.

– Qaysi kitob dedingiz?

– Anavi kitobcha, – magazinchi kitoblar turgan javon tomon boshi bilan ishora qildi, – Abdulla Oripov degan bir yosh shoir chiqqan, o'zi qashqadaryolik. Lekin yaxshi yozadi.

– Qani, olib bering-chi, – dedi Temur aka.

Magazinchi kitobchani olib Temur akaga uzatdi.

Temur aka qo'lidagi narsalarni peshtaxta ustiga qo'ydi-da, kitobchani qo'liga olib varaqlay boshladi, u yoq-bu yog'iga qaragan bo'ldi.

– Yaxshi kitobcha ekan, qancha turadi bu?

– Ana, orqasida yozib qo'yilgan, 70 tiyin.

Temur aka biroz o'ylanib qoldi.

– Mayli, men shu kitobchani olaman, – u do'kondan xarid qilgan narsalarini kovlab, sumkasidan bir "butilka" qizil vinoni chiqardi-da, magazinchiga uzatdi, – Mayli, bu savil qolgurni ertagayam ichsak bo'ladi. Sheriklarimam o'lib qolmas...

Va shunda umrbod esimdan chiqmaydigan, to qabrgacha inson bolasiga ibrat bo'ladigan voqea sodir bo'ldi. Temur aka kitobchani o'ziga, o'z farzandlariga oldi, deb havasim kelib turgan, imkon topsam, u kishining uyiga borib, albatta, kitobchani o'qiyman, deb turganimda... kutilmaganda Temur aka "Yurtim shamoli"ni menga uzatdi.

– Ma, ol, sepkildor. O'qi, katta odam bo'l. Bu kitoblarni o'qib, olim bo'lganingda, kitoblar yozganingda meni ham bir eslab qo'yarsan. Eslamasang ham mayli, lekin o'qi, faqat o'qi.

Bunday iltifotning yukidan vujudim titrab, oyoqlarim qaltirab, yerga o'tirib qolishimga sal qoldi...

Mana, voyaga yetib, poytaxtga kelib o'qidim, noshir ham bo'ldim. Hammasi sizning mo'jazgina "Yurtim shamoli" kitobchangizdan ko'ksimga kirgan go'zal nasimlar tufayli ro'yobga chiqdi, desam bu mubolag'a emas. Shuning uchun ustoz "Qarzimni qanday uzay" demang. Sizdan men qarzdorman. Sizdan butun o'zbek xalqi minnatdor.

Muhabbat tug'yonlari jo'sh urganda, taqdir kulib boqmaganda, hayot o'yinlari iskanjasiga olganda "Dunyo degan shundayin anglab bo'lmas sir ekan, Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan" deya buyuk hofiz Sherali Jo'rayevning sehrli ovoziga uyg'unlashgan tuyg'ularimiz bilan o'zimizcha xirgoyi qilib, "Birinchi muhabbatim"dan madad oldik.

Talabalik yillarimizda siz va yana 3-4 nafar shoir ishtirokida bo'lib o'tgan she'riyat kechasi hamon esimda. Uchrashuv tugagandan so'ng ziyofat chog'ida bir adabiyotshunos olim sizga nozik savol bergani va unga haqiqiy buyuklarga xos javob berganingizni unutmayman.

"Abdulla aka, siz elning nazari tushgan ulug' bir insonsiz. Anavi falonchini nega yoningizda olib yurasiz. U sizning yoningizda hech kim!"

Siz bir oz jim turib, javob berdingiz:

– Bu dunyoga kelib, Alloh la'natlagan shayton vasvasasidan ko'p aziyat chekdim. Shirakayf paytlarimda dushmanim, jamiki insoniyatning dushmani bo'lgan shaytonning yuzini ko'rgim keladi. "Qanday ekan, bu mal'unning yuzi?" deya ich-etimni yeb, o'zimga savol beraman. Siz aytgan o'sha odamning qiyofasi unga o'xshaydi. Ichgan paytlarimda o'sha odamni ro'paramga o'tqizib, uning basharasiga uzoq termulaman, ko'zlarining ortida shaytonning qizargan ukki ko'zlarini ko'rgandek bo'laman. U quyib qo'ygan shayton! Shuning uchun boshqalarga ziyoni tegmasin, deb yonimda olib yuraman...

* * *

Sizni yaxshi ko'radigan bir shogirdingiz bilan bugun erta tongda "Chig'atoy"ga bordim, qabringizni ziyorat qildik. Qabringiz ustiga nafis yodgorlik qo'yilgan. Haykaltaroshga ham qoyilman, toshdan mo'jiza yaratgan, go'yoki toshdek zamindan mahobat, tarovat, aql-idrok, buyuk qalb o'sib chiqqanday. Qabringiz atrofi obod, gullarga burkangan, maktab o'quvchilari, talabalar, sizni yaxshi ko'rganlarning, sizni sog'inganlarning oyog'i uzilmaydi, chamamda, ziyoratingizdan. Bundan ko'nglim ravshan tortadi.

Byustingiz poyiga gul qo'ydik. Mozoringiz ro'parasidagi o'rindiqda o'tirib, ko'nglimizdan shunday o'ylar o'tdi:

"Abdulla aka, Sizning oldingizda qarzimiz behad katta. Uni biz shogirdlaringiz, avlodlar uza olamizmi? Ha, deyishga ba'zan ikkilanaman. Sizni o'rtantirgan, adoyi tomom qilgan, na'ralaringiz, da'vatlaringizga labbay deya millatning asl farzandlariga aylanmagunimizcha, nuqsonlarimizni isloh qilib, bir-birimiz bilan qadrdon aka-uka bo'lmaganimizcha, onamizni, Vatanimizni, elimizni, yorimizni Siz sevgan kabi ardoqlab, sevmagunimizcha qarzdormiz...

**Mizrob BO'RONOV.**
**O'zA**



PSIXOLOGIYA

# Siqilishga o'rin yo'q!

*— Xolidaxon, eshitdingizmi?*

*— Nimani?*

*— Xorijda virusning yangi turi chiqib, kun sayin ko'payayotganmish. Bilishimcha bizga ham kirib kelibdi. Eng yomoni virusning bu turi bolalarga tezroq yuqarmish. Bolalarning qorni og'rib, tez-tez charchasa yoki tomog'i og'risa, bilingki, virus yuqtirgan bo'larkan.*

*— Voy o'lmasam, endi nima qilamiz?! Uchta yosh bolam borku. Yaxshiyam aytdingiz. Qizim va o'g'limni bog'chadan chiqarib olaman. Ko'z oldimda bo'lishsin. Eytiyot shart...*

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ayollar mavjud vaziyat yuzasidan ko'proq vahimaga tushib, stres holatini boshdan o'tkazar ekan. Shuningdek, ayollar boshqalarga ham ta'sir etish kuchiga ega. Yuqoridagi holatga hayotimiz davotida turli voqea va hodisalar misolida guvoh bo'lamiz. Vaziyatni to'liq tushunmasdan o'z qarichimiz bilan o'lchab, xulosa yasaymiz.

Xo'sh, stres nima? Undan qutulish yoki bu vaziyatga tushmaslik uchun nima qilish kerak?

Stres — odam va hayvonlarda kuchli taassurotlar natijasida sodir bo'ladigan o'ta hayajonlanish, asabiylik holati. Sizdagi stres holati qay darajada ekanligini aniqlash uchun quyidagi testni e'tiboringizga havola qilamiz.

Ilgarilari buvijonlarimiz qay tarzda kir yuvganini bir eslang. Ayollar suv tashib, isitib, kirlarni qo'lda yuvib, arqonga ilgan. Havoning buzilishi yuvilgan kirlarning qurimasligiga sabab bo'lgan. Bu kabi havoda kir yuvish ham yaxshi g'oya emasdek ko'rinadi go'yo. Bu holat hozirgi kunda ham kuzatiladi. Faraz qiling, siz shu tartibda kir yuvasiz. Kirlar yig'ilib qolgan, havo esa aynib, yomg'ir yog'ay deb turibdi. Xo'sh, bunday vaziyatda siz qanday yo'l tutasiz?

**Javoblardan faqat bittasini tanlang:**

**1. Endi ertaga kir yuvamanmi? Nima kiyaman?**

**2. Biroz kutay-chi, balki yana quyosh chiqib qolar...**

**3. Bugun kir yuvmaydigan bo'ldim! Havo aynib tursa, kir ham yuvilmaydi-da...**

**4. Yomg'ir yog'adimi, qor yog'adimi, baribir shu kirni yuvaman!**

**Javoblar tahlili:**

*"1. Endi ertaga kir yuvamanmi? Nima kiyaman?"*

Bu kabi fikr yurituvchilarda stres 80 foizni tashkil etadi. Ularda mayda-chuyda narsalarga ham jizzaki bo'lib, asabiylashish holati mavjud. Arzimagan narsaga ham kayfiyatni tushirib, urishib qolishadi. O'zingizning sog'lig'ingiz haqida o'ylash vaqti kelmadimikan? Bunday tarang asablar bilan yashash sog'liqqa va munosabatlarga putur yetkazadi. O'zingizga ko'proq vaqt ajratib, dam olishni unutmang.

*"2. Biroz kutay-chi, balki yana quyosh chiqib qolar..."*

Ushbu javob egalarida stres holati 50 foiz. Siz kutgan yechim bo'lmasa ham o'zingizni tuta olasiz. Ammo murakkab vaziyatlarda asabiylik, tushkunlik sizni qamrab olishi mumkin. Ichga yutish o'rniga, hamma narsada, bo'lgan voqea-hodisalarda ham yaxshilikni ko'ra bilish kerakligini tavsiya qilamiz.

*"3. Bugun kir yuvmaydigan bo'ldim! Havo aynib tursa, kir ham yuvilmaydi-da..."*

Bu kabi fikr egalarida stres 0 foiz, ya'ni hech qanday stres alomatlari yo'q. Siz hech ikkilanmay "Daryo toshsa ham to'pig'imga chiqmaydi", deya olasiz. Bu kabi insonlarga uncha-buncha narsa yoki voqea-hodisa ta'sir o'tkazmaydi. Siz juda ham vazmin va sokinsiz. Asablaringiz mustahkam. Turli streslarga chidamlisiz.

*"4. Yomg'ir yog'adimi, qor yog'adimi, baribir shu kirni yuvaman!".*

Bunday fikrlovchilarda stres holati 100 foiz. Siz o'z hayotingizdagi hamma narsalarga asabiy nigoh bilan qaraysiz. Real hayotga moslashmaslik, uni o'zgartirishga urinish sizni qiynaydi.

Xo'sh, siz qaysi guruhga mansubsiz?

Pandemiya davrida odamlarda stresga beriluvchanlik bir muncha ortdi. Kasallik yuqtirib olishdan qo'rqish, yaqinlari to'g'risida qayg'urish, ertangi kunga bo'lgan ishonchning yo'qolishi kabi salbiy holatlar karantin davrida ko'paydi. Kasallik ortga chekinib, vaziyat barqarorlashgach, ko'nglimiz biroz taskin topganday bo'ldi. Ammo yuqoridagidek turli mish-mishlar tarqala boshlagani sari har birimizda xavotir jonlanib, stres holatiga qaytishimiz mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik, o'zingizga bog'liq.

Avvalo, o'zingizdagi salbiy holatlarni boshqarishga harakat qiling. Dastlab nimadan xavotirga tushayotganingizni aniqlang. So'ng uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiring. Bajargan ishingizdan faqat ijobiy natijalarni izlang. Shaxsiy olamingizdan saqlaning, o'zingizcha fikr yuritib, xulosa chiqarib qo'ymang. Diqqatingizni turli salbiy axborotlarga qaratmang. Ijtimoiy tarmoq orqali kelgan har qanday xabarga ham ishonib, atrofdagilaringizni bezovta qilmang. Avvalo, xabarning ishonchliligini tekshiring!

O'zingiz kabi o'zgarishni istayotgan hamfikrni toping. Bir-biringizga erishgan eng kichkina yutuqlarni ham gapirib berishga kelishib oling. Shunda o'zingizni avval o'rtog'ingizga, so'ng boshqalarga tan oldirish uchun kattaroq ishlarni bajarishga rag'batlantirgan bo'lasiz.

Shu tariqa sizda kelajak maqsadlarga tomon odimlash hissi paydo bo'ladi. Eng asosiysi kelajakka umid bilan qarang. Maqsadlaringizga erishish yo'lidagi ishlarni rejalashtiring. Shunday reja tuzingki, u bilan band bo'lib keraksiz tashvishlarni unuting. Ana shunda sizda porloq kelajakka umid, ishonch qayta jonlanadi.

**Zilola TO'LAGANOVA,**
**Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazi psixologi**

XALQ TABOBATI



# Bequsur zirovor

***Qadim zamonlardan beri tabiatning bebaho ne'mati hisoblangan dolchin "bequsur zirovor" degan ma'noni anglatadi.***

***Uning bir necha turi mavjud. Seylon dolchini eng qimmatlisi hisoblanadi. Haqiqiy Seylon dolchini balandligi 15 metrgacha yetadigan doim yashil tusdagi tropik daraxt po'stlog'dan olinadi.***

Pazandalikda dolchin turli taomlarga qo'shiladi. Shirin taomlardan olcha, olma, oshqovoqqa; qo'y, tovuq go'shtiga qo'shiladi. Yevropa pazandaligida mevali va sabzavotli (qizil karam, sabzi, ismaloq) salatlarga ham qo'shiladi. Qandolatchilikda esa murabbo, shirinlik, ichimliklar tayyorlashda foydalaniladi.

"... Dolchin quloq og'rig'ini bosadi. Ko'zdan quyuq rutubatni ketkazadi. Yo'talga, istisqoga foyda qilib, jigar tiqimlarini ochadi".

Abu Ali ibn SINO

Dolchin shifobaxsh ne'mat sifatida ham mashhur.

U mikroblar, yallig'lanish, og'riqlarga qarshi, yara bitishida malham bo'ladi. Dolchin yurak faoliyati va moddalar almashinuvini yaxshilaydi, semirishning oldini oladi. Dolchinli choy arterial qon bosimini tushiradi. Azaldan ushbu ziravor asab buzilishi va bezovtalanishga qarshi qo'llaniladi.

Shu bilan birga, tish og'rig'ini yo'qotib, ko'rish qobilyatini yaxshilashda ham foydali. Balg'amli yo'tal, surunkali bronxit va ovoz bo'g'ilganda malham bo'ladi.

Ammo qon bosimi yuqori bo'lgan kishilar dolchinni ehtiyotkorlik bilan ishlatishlari kerak. Qiziqqon kishilar uchun bosh og'rig'ini keltirib chiqarishi mumkin.

Homilador ayollar dolchinni ko'p miqdorda iste'mol qilishi tavsiya etilmaydi, chunki u homila tushishiga sabab bo'ladi.

**Mirzamir MIRZASHARIPOV,**
**dorishunos**

# Yoshlar murojaati BOTI OCHILDI




Siz ta'lim olish, bandlik, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, uy-joy xarid qilish, oila qurish hamda boshqa holatlarda muammo va noqonuniy to'siqlarga duch kelsangiz, bu haqda bizga murojaat eting. Tahririyat o'z vakolatlari doirasida bu muammolarni keng yoritish, tegishli tashkilot va idoralarga ochiq xat yo'llash yoki masalalar yechimi yuzasidan huquqiy maslahatlar berishda Sizga yaqindan ko'maklashadi.

**UNUTMANG!** *Odatda yoshlar o'zining ulkan rejalarini boshlash arafasida ko'pincha mayda to'siq va muammolarga duch keladi. Bu tabiiy jarayon bo'lib, kurashuvchanlik bilan uchbu muammolarni yengib o'ta olganlar yangi-yangi ufqlarni zabt etaveradi.*

***Tahririyat***

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана
MUASSIS
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB – Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR: Jamshid MUSURMONOV
DIZAYNER Zafar RO'ZIYEV

TAHRIRIYAT MANZILI:
100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.
Telefon: (71) 236-79-95.
Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-255
Adadi – 785
Bosishga topshirish vaqti – 21.00
Topshirildi – 20.02